

VATANDIN YAXSHI YOR BO'LMAS!

VATANDOSH

Madaniy-ma'rifiy gazeta. 2011-yil, 17-mart. 1-son.

YANGILIKLAR

QOSIMJONOV ANANDNI YENGA OLMADI

27-mart kuni Toshkentda tezkor shaxmat bo'yicha 17-jahon chempioni, hamyurtimiz Rustam Qosimjonov va to'rt karra va amaldagi jahon chempioni, hindistonlik Vishvanatan Anand o'rtasida 4 partiyadan iborat o'rtoqlik bahsi bo'lib o'tdi.

Qur'aga ko'ra 1 partiyani Anand oq donalarda boshlab berdi. Bahs umumiy natijasiga ko'ra 0,5-3,5 (0,5-0,5, 0-1, 0-1, 0-1) hisobida Qosimjonov Anandga imkoniyatni boy berdi.



Tadbir so'ngida Qosimjonov izoh keltirarkan, bu uchrashuvdan muhimi natija emas, jahon chempioni bilan Toshkentda shunday uchrashuv tashkillashtirilgani shaxmatga bo'lgan qiziqishning yanada ortishiga hissa qo'shishini ta'kidlab o'tdi.

Championlar bahsi yuzasidan Toshkentga taklif buyurgan FIDE Prezidenti Kirsan Ilyumjinov kelayotgan shaxmat akademiyasi tashkil qilish masalalari ko'rilayotganini aytib o'tdi.

Shaxmat bayramini 28-mart kuni Vishvanatan Anand ishtirokida O'zbekistonning and kuchli shaxmatchi o'smirlari bilan bo'lib o'tgan seminar trening va o'yin sentsi davom ettirgan bo'lsa, 29-mart kunidagi Rustam Qosimjonov va yosh shaxmatchilar o'rtasidagi xuddi shunday trening tadbirga yakun yasadi.

Husniddin ATO.
Suratni muallif olgan.



AMERIKA ZAMINIDA NAVRO'Z

O'tgan yildan boshlab xalqaro bayram maqomini olgan Navro'z AQShda ham keng nishonlandi. Bahor kelishini, kunlar uzayib, dehqonchilik ishlari boshlanishini ming yillar davomida qayd etib kelayotgan xalqlar uchun Navro'z alohida tarovatga ega. Ushbu kunni nishonlash orqali "sehrli diyorda" yashayotgan har bir millat o'z an'alarini, ajoyib udumlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davomi 3-betda

DADAJON, I'M SORRY



Nemis mutafakkiri Vilgelm Gumbold "Agar nemis xalqi yo'qolib ketsa, xalq ruhi, tarixi, qadriyatlarini o'sha tilda yaratilgan asarlarida yashaydi", degan ekan. Ana shu tilda 200 dan ortiq sheva bo'lib, adabiy nemis tili uning asosiy vositasi hisoblanadi. Abdulla Avloniy ham milliy tildan ayrilish — millat ruhini yo'qotish bilan barobar, deb ta'kidlagan. Demak, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkur ifodasi bo'lgan tilimizni avaylab-asrashimiz, erkin rivojlanishi, boyib borishiga imkon yaratishimiz kerak.

Davomi 5-betda

KALIFORNIYADA O'ZBEK QOVUNLARI YETISHTIRILMOQDA



Bilasizmi, koliforniyaliklar hechqursa bir marta tatib ko'rish uchun o'z diyoridan o'zbek qovunlarini izlashga tushdilar. Bu voqeya "Los Angeles Tayms"da AQShda o'zbek qovunlari etishtirilayotganligi haqidagi maqola (2010 yil 7 sentyabr) chiqqandan keyin boshlandi. Tabiiyki, bundan men ham faxrlandim va bu haqda o'z yurtdoshlarimdan suyunchi olishga shoshildim.

Davomi 4-betda



DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR

Kiyik och qolmaslik uchun ko'kat yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Odam ko'katni ham yeydi. Kiyikni ham yeydi. ... Keyin... urush qilib, bir-birining boshini yeydi...

8-sahifa



HUQUQIY MASLAHATXONA

Men AQShga Grin Kard bo'yicha kelganman. O'zbekistonda xotinim va o'g'lim qolgan. Xotinim bilan fuqarolik nikohidamiz. Agar nikohimizni rasmiylashtirsak, xotinim bilan o'g'limni bu yerga olib kelsam bo'ladimi?

9-sahifa



OBAMA XALQARO TALABALARNING AQSHDA QOLISHINI ISTAYDIMI?

Yaqinda AQSh Kongressiga qilgan xitobida, AQSh prezidenti Barak Obama chet ellik talabalarni o'qishlari bitgandan so'ng o'z vatanlariga qaytarib yuborish haqidagi siyosatni notog'ri deya baholadi.

13-sahifa

NYU JERSIDAGI UCHRASHUVLAR

5-sahifa

QUTLOVLAR

6-sahifa

MENI OLIB KETING O'Z DIYORIMGAGA

8-sahifa

MUROD QACHON MURODIGA YETADI

9-sahifa

TURKIY TILIM SEN AZALDAN...

10-sahifa

AMERIKADA O'QIMOQCHIMISIZ?

13-sahifa

ABDULHAMID CHO'L PON

16-sahifa

HALOLLIK

17-sahifa

QIZIQARLI TOPISHMOQLAR

19-sahifa

AFANDI LATIFALARI

20-sahifa

EHTIYOT BO'LING: QALBAKI GRIN KARD

AQShning O'zbekistondagi Elchixonasi Grin Kard lotereyasi bilan bog'liq bo'lgan firibgarliklar xususida ogohlantiruvchi murojaat e'lon qildi.

Murojaatda elchixonaga qalbaki elektron maktublar, SMS xabarlar, Internetdagi saytlar va matbuotdagi reklama haqidagi xabarlar yetib kelayotganligi uqtirilgan. Shu munosabat bilan AQShga viza olish va, ayniqsa, Grin Kard lotereyasi masalalari bo'yicha shaxsiy firmalarga murojaat etilganda ehtiyot bo'lishlikka chaqirilgan.


Elchixonada maktubida soxtakorlar qanday ish tutishayotganliklarini ko'rsatuvchi ikkita misol keltirilgan. Birinchi misol. Ma'lum bir fuqaroga Grin Kard lotereyasi haqida e-mail maktub jo'natilib, pulni Vestern Yunion orqali Londondagi AQSH elchixonasining soxta ishchisi nomiga yuborish haqida ko'rsatma beriladi. Ikkinchi misol. Ayrim shaxslar USAFIS nomli tashkilotdan soxta e-mail olishmoqda. Xatlardan maqsad murojaat etuvchilarni Grin Kard lotereyasini yutgan deb aldashdir.

AQSh elchixonasi hech qachon Grin Kard lotereyasida qatnashish uchun to'lovlarni e-mail xatida ko'rsatilgan manzilga yubormaslikni ta'kidlaydi. Shuningdek, Grin Kard lotereyasida ro'yxatdan o'tish bepul jarayon ekanligi, lotereya uchun ma'muriy to'lovlar faqatgina AQShning Toshkentdagi elchixonasida viza olish uchun suhbat davomida olinishi uqtirilgan. Demak, elchixonadagi suhbatdan oldin pul to'lashga undovchi har qanday xabar firibgarlikdir.

Grin Kard 2012 lotereyasida qatnashish uchun Internet orqali ro'yxatdan o'tganlar Kentukkidagi Konsullik Markazidan hech qanday xat olishmaydi. Ular mustaqil ravishda o'z ma'lumotlarini 2011-yilning 1-maydan 2012-yilning 30-iyunigacha www.dvlottery.state.gov saytidagi DV Maqom Tekshiruvchi sahifasi orqali tekshirishlari kerak bo'ladi.

2012-yil Grin Kard lotereyasi uchun suhbatlar 2011-yilning oktyabr oyida boshlanadi.

AMERIKA O'ZBEKLARINING YANGI NASHRI



"O'zbekim" nomli yangi oynoma dunyo yuzini ko'rdi.

Yuqori sifatli rangli qog'ozda besh ming nusxada chop etilgan birinchi soni 28 sahifadan iborat. Jurnal o'zbek, rus va ingliz tillarida o'zbeklar hayoti, urf-odat, san'at, adabiyot va madaniyat mavzularidagi om-mabop maqolalar bilan boyitilgan.

Navro'z kuni Bruklinda uyushtirilgan bayram shodiyonasida jurnalning keng ommaga taqdimoti o'tkazildi. Tadbirda Amerikadagi o'zbeklar va boshqa xalqlar ziyolilari, o'zbeklar jamiyati vakillari hamda O'zbekistondan tashrif buyurgan san'atkorlar ishtirok etdi. Yangi nashr jamoatchilik tomonidan katta qiziqish va xursandchilik bilan qabul qilindi.

Jurnal loyihasiga Nargiza Masharipova rahbarlik qilmoqda. Bosh muharrir Husayn Odilov. Bosh direktor - Ilhom Kenjaboyev.

"YANGI YEVROSIYO: KEYINGI 20 YILLIK MUAMMOLARI"



ChapelHilldagi Shimoliy Karolina universitetida tashkil etilgan ikki kunlik konferensiya shunday nom bilan ataldi. Unda Sobiq Sovet Ittifoqi, xususan, Markaziy Osiyodagi energetika, atrof-muhit, etnik va jinsiyat mavzularida so'nggi 20 yillikdagi o'zgarishlar, yangiliklar va muammolar bo'yicha ilmiy bahslar qilindi. Yig'inda sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlaridan, jumladan, markaziy osiyolik yosh olim va tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Konferensiyaning birinchi kunida o'tgan yili Qirg'izistonda ro'y bergan qonli etnik mojarolar olimlar va ishtirokchilarning diqqat markazida bo'ldi. Mustaqil tadqiqotchi Ulug'bek Qosimov Qirg'izistonning iqtisodiy va biznes hayotida mahalliy o'zbeklarning roli mavzusida ma'ruza qilib, etnik to'qnashuvlar mahalliy o'zbek tadbirkorlarini butunlay xonavayron qilganiga alohida to'xtalib o'tdi. Uning aytishicha, dunyo jamoatchiligi Qirg'izistondagi etnik muammolardan to'liq xabardor emas; shuning uchun shu kabi xalqaro yig'inlarda bu muhim mavzuni bot-bot jamoatchilik yodiga solib turish kerak. Qirg'izistonlik olimam Zumrat Salmorbekova ham shu mavzuda chiqish qilib, qirg'indan keyingi Qirg'iz hukumatining etnik siyosati haqida gapirdi. Yosh olimaning aytishicha, hozirgi Qirg'izistonda o'zbeklarga qarshi millatchilik kayfiyati juda yuqori.

Anjumanning ikkinchi kunida post-Sovet hududidagi energetika, atrof-muhit, ayollar va jinsiyat muammolari tahlil qilindi. Yosh tadqiqotchilar ushbu mavzular bo'yicha ilmiy ma'ruzalar o'qishdi. O'zbekistonlik yosh olimam, Dyuk Universiteti professori Zumrad Ahmedjonova O'zbekistondagi o'ziga o't qo'yuvchi ayollar muammosini ko'tarib chiqib, Sovet Ittifoqining so'nggi yillarida keng yoyilgan bu illatga, asosan, ayollarning kamsitilishi, haq-huquqlarining himoya qilinmasligi sabab bo'lgani haqida gapirdi. Uning fikricha, nochor qolgan ayollar o'zlariga o't qo'yishni zulmga qarshi e'tiroz ramzi sifatida ko'rishadi.

Konferensiya Shimoliy Karolina Universitetining Slavyan, Yevrosiyo va Sharqiy Yevropa tadqiqotlari markazi tomonidan tashkil etildi. Uni tashkil etishda Karolina Seminarlari, Yaqin Sharq va Musulmon sivilizatsiyalari ilmiy tadqiqotlar

markazi va boshqa bir qator ilmiy markazlar homiylik qildi.

(Suratda: Dyuk Universiteti professori Zumrad Ahmedjonova yig'inda ma'ruza qilmoqda.)

O'ZBEKISTON YAPONIYAGA GUMANITAR YORDAM YO'LLADI

O'zbekiston tashqi ishlar vazirligining "Jahon" axborot agentligi xabariga ko'ra, O'zbekiston Yapnoyaga 16 tonnalik gumanitar yordam yuklari ortilgan «Boing-767» samolyotini jo'natgan. Ro'y bergan zilzila va to'fondan jabr ko'rganlarga yuborilgan insonparvarlik yordami chodir, oyoq kiyim va ko'rpato'shaklardan iborat.

"Jahon" axborot agentligiga ko'ra, Yaponiyaning Toshkentdagi elchisi Yosixisa Kuroda ko'rsatilgan insonparvarlik yordami uchun O'zbekiston Respublikasiga minnatdorlik bildirgan.

Eslatib o'tasiz, joriy yilning 11-mart kuni Yaponiya shimoli-sharqiy qismida ro'y bergan 9 ballik zilzila va uning ortidan kelib chiqqan to'fon ulkan talafotga sabab bo'ldi. Tabiiy ofat oqibatida 30 mingdan ziyod odam halok bo'ldi, minglab odamlar jarohatlandi. Bedarak yo'qolganlar soni 15 mingdan ziyod.

TOJIKISTONDA YANGI O'ZBEK GAZETASI NASHR QILINDI



"Amerika Ovozi" o'zbek xizmatining xabar berishicha, Tojikistonning So'g'd viloyatida "Ma'naviyat" nomli yangi o'zbek gazetasi chop etila boshlagan. Gazetaning ilk soni Navro'z arafasida chiqqan.

Tojikistonda 1100 dan ortiq davlat va nodavlat gazeta-jurnallari chop etiladi. Ular orasida o'zbek tilidagi nashrlar soni kam. O'zbeklar soni bu mamlakatda ikki millionga yaqin bo'lib, Tojikistondagi eng yirik millatlardan biri hisoblanadi.

"Ma'naviyat"ning ilk soni 1000 nusxada chop etilgan. Gazeta bosh muharriri Zohirjon Ergashevning aytishicha, Rossiyada o'zbeklar "Turon", Amerikada "Vatandosh" gazetalarini va "O'zbekim" jurnalini ona tilida chop etib turgan bir paytda aholisining o'ttiz foizdan ortiqrog'ini o'zbeklar tashkil etuvchi Tojikistonda o'zbek nashrlarining kamligi "o'zimizni qadrimizga yetmasligimizning nishonasi"dir.

Bosh muharrirning aytishicha, gazeta hozircha tashabbuskor guruhning fidoiyligi bilan chiqarilmoqda. Gazeta hech qanday moliyaviy ta'minotga ega emas. Nashrning asosiy maqsadlaridan biri, mamlakatda elatlararo do'stlikni mustahkamlashga hissa qo'shish.

Xabarlarni Behzod MAMADIYEV va Toshpo'lat RAHMATULLA tayyorladi.

VATANDOSH

Vol.1. Thursday,
March 17, 2011

Publisher:
Farhod Sulton

Executive Editor:
Davronbek Tojjaliyev

Deputy Editor:
Alisher Aymatli

Deputy Editor:
Toshpolat Rahmatullayev

News Editor:
Behzod Mamadiyev

Managing Editors:
Abdulla Kwaja
Lutfulla Tore
Tamara Nazarova

Advertising Manager:
Sodiq Fayzulla

Web Developer:
Shukhrat Pardayev

Editorial and Executive
office:

2715 Coney Island Ave.
Brooklyn, NY 11235

Phone: 646.397.0325

Web: www.vatandosh.com

Email:

info@vatandosh.com

All material in this newspaper has been copyrighted and is the exclusive property of Vatandosh Inc and cannot be reproduced without the due consent of the publisher.

The views and opinions expressed by our columnists do not necessarily reflect the editor's point of view.

We are not responsible for contents of advertisements and products and establishments advertised in Vatandosh.

Price: \$0.25
Circulation: 5000

Aziz vatandoshlar!

"Vatandosh" gazetasi bilan hamkorlikda ishlayman, o'z mahsulot va xizmatlarimni ushbu nashrda targ'ib qilaman, bu yangi nashrning oyoqqa turib olishiga homiylik ko'rsataman, deganlarga hech qanday moneligi-miz yo'q, eshigimiz Siz azizlar uchun hamisha ochiq!

(Davomi. Boshi 1-sahifada.)

Prezident Barak Obama va Davlat kotibi Xillari Klinton har yildagidek Navro'z bayramini nishonlayotgan xalqlarga o'z tabriklarini yo'llashdi. "AQShda va butun dunyoda Navro'zni nishonlayotganlarga barchaga o'zimizning eng yaxshi tilaklarimni bildiraman", - deyiladi jumladan Prezident murojaatida. Klinton xonim tabrigida quyidagi so'zlarni o'qiydiki: "Navro'z bayrami ming yillardan buyon oila va do'stlar davrasida yangi yilning boshlanishini munosib kutib olish maqsadida tantana qilib kelinmoqda. Navro'zni nishonlashning ko'plab boy an'analari orasida barchamizga birday taalluqli qayta uyg'onishni sharaflash va baxtu iqbolni ko'zlash mavzulari har doim yetakchilik qilib keladi."

AQShning turli shaharlarida yashayotgan o'zbekistonliklar odatga ko'ra Yangi yil kirib kelishini katta tantanaga aylantirishga muvaffaq bo'lishdi. Ushbu tadbirlar qanday o'tdi?

NYU-JERSEY shtatidagi Dover shahrida joylashgan "Turkiston-Amerika" assotsiatsiyasi vatandoshlarimiz uchun bayram tantanalarini tashkil etdi. Markazning ikki qavatli binosi o'ziga xos usulda, ayyomga mos qilib bezatildi. Markaz faollari uning prezidenti Abdulla Xo'ja yetakchiligida Navro'z ko'ngildagidek o'tishi uchun anchagina tayyorgarlik ko'rishganligi ko'zga tashlanib turardi.

Mezbonlar dastlab kelganlarni sumalak va boshqa bahoriy ne'matlar tortilgan dasturxoniga taklif etishdi. Shundan so'ng markaz binosining ikkinchi qavatida bayram munosabati bilan tayyorlangan badiiy-musiqaviy dastur namoyish etildi. Tadbir debochasida Abdulla Xo'ja yig'ilganlarni bayram bilan qutladi, barchaga tashrif uchun minnatdorchilik bildirdi. O'zbekistonning AQShdagi Favqulodda va Muxtor elchisi Ilhom Nematov, Dover shahri meriyasi rahbarlari, "Uzbek TV New York, Inc." prezidenti Nargiza Masharipova va bosh muharriri Husayn Odilov va

boshqalar barchani bayram bilan tabriklashdi.

Bundan ko'p yillar oldin AQShga kelib qolgan yurtdoshlarimiz farzandlari ijro etgan qo'shiq, lapar va raqslar mezbonlar tomonidan qizg'in kutib olindi. Jajji bolajonlar aytib bergan she'rlar o'z samimiyiligi bilan dillarni rom etdi. Tashkilotchilar sahna ko'rinishlarini tayyorlashda professional raqqosa Zamira Usmonova mehnatini alohida qayd etishdi. Uzoq-yaqindan tashrif buyurgan mehmonlar biz bilan suhbatda tadbirdan alohida zavq olishganligini ta'kidlashdi.

CHIKAGOdagi O'zbek-Amerika Assotsiatsiyasida ham vatandoshlarimiz Navro'zni keng tantana bi-

jonli ijrosi, O'zbekiston xalq hofizi Izro Malakovning Fuzuliy g'azali bilan aytiladigan "Qurbon o'lay"ni hech kimga o'xshamagan usulda, yuksak mahorat bilan ijro etganligi, Nargiz va Shavkat dueti, Tamara Katayeva qo'shiqlari barchaga zavq-shavq bag'ishladi.

O'zbekistonning AQShdagi Favqulodda va Muxtor elchisi Ilhom Nematov, mamlakatimizning Nyu-Yorkdagi Bosh konsuli Durbek Omonov, Bruklinning rasmiy vakillari, "Vatandosh" gazetasi ta'sischi Farhod Sulton, gazeta bosh muharriri o'rinbosari Alisher Aymatli va boshqalar o'z chiqishlarida Navro'z tarovati xususida so'z yuritib, to'planganlarni qizg'in

hudiy xalqi nomidan gapirgan Raisa ismli ayol o'zbek xalqining insonparvarligini, boshqalarga doimo yordam qo'lini cho'zib kelganligini uqtirib, Ikkinchi jahon urushi davrida yahudiylarga qilgan mehribonchiliklar uchun minnatdorchilik bildirdi".

FILADELFIYAdagi yashayotgan yurtdoshlarimiz ham Navro'zni alohida shodiyona bilan qayd etishdi. Samarqandlik Bahodir Qudratovning so'zlariga qaraganda, Filadelfiya va uning atrofida bir necha ming o'zbekistonlik oilalar istiqomat qiladi. "Men o'zim Navro'z munosabati bilan uch joyda katta qozonda halimtayyorlanib, dasturxon tortilganligidan xabardor-

AMERIKA ZAMINIDA NAVRO'Z

lan kutib olishdi. Kechada ishtirok etgan yuzdan ortiq mehmon sharafiga bir-biridan lazzatli sharqona va o'zbek taomlari tortiq qilindi. Navro'z ramzi bo'lgan sumalak dasturxon ko'rkiga aylandi.

SIETL shahrida Sietl-Toshkent qardosh shaharlar assotsiatsiyasi barchani Navro'z bayrami shodiyonasiga taklif etdi. Milliy va mumtoz musiqa, o'yin-kulgi va albatta laziz taomlar barchaga bayromona kayfiyat ulashdi.

NYU-YORKdagi Navro'z tantanalarini "Millenium" teatrlarining "Oceana" restorani-da bo'lib o'tdi. Uni Feruza Murodova rahbarligida bir guruh vatandoshlarimiz O'zbekistonning Nyu-Yorkdagi Bosh Konsulligi qo'llab-quvvatlashi bilan tashkil etishdi. Tadbirda ishtirok etgan 400 nafardan ortiq mehmon uchun ajoyib konsert dasturi tayyorlandi. Sahnada folklor dastasi va havaskorlar bilan bir qatorda professional qo'shiqchilar va raqqosalar o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Qiziqchilar ham mehmonlar kayfiyatini ko'tarish yo'lida jonbozlik ko'rsatishdi.

O'zbekiston xalq artisti Muhabbat Shamayevaning

qutlashdi.

Shu kuni to'planganlar hech kutmagan ajoyib voqea yuz berdi. Sahnaga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, xalqimizning sevimli aktyori Obid Asomov ko'tarildi. U o'zining ichak uzdi xandalari bilan davra kayfiyatini yuqori cho'qqiga ko'atarishga muvaffaq bo'ldi. Shu kuni kechqurun O. Asomov Rossiyaning "Krivoye zerkalo" teatri tarkibida yana sahnaga chiqdi.

Tadbir ishtirokchilari bilan suhbatlashganimizda, ular sahnadagi chiqishlarni ko'rib hamda dasturxoniga tortilgan sumalak, halim va boshqa noz-ne'matlar tanovul qilib, biz Navro'zni xuddi o'z yurtimizda nishonlagandek bo'ldik, deyishdi. Jumladan, ushbu so'zlarni aytgan yurtdoshlarimizdan biri Shukrulloxon Ismoilov tahririyatimizga yo'llagan maktabida quyidagilarni uqtirgan: "Bayram tadbiri yuqori saviyada tashkil etildi. Unda turli millat vakillari ishtirok etdi. Bu esa xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirib, ular o'rtasidagi mehr-muhabbatni yanada mustahkamlovchi omillardan sanaladi. Tadbirda Buxoro yahudiylari vakillari ham qatnashdi. Ya-

man, - deydi suhbatdoshimiz. - Biz ham qo'shnilar bilan O'zbekistondan dosh qozon, tandir, o'choq buyurtirib oldik. Ular turli tadbirlarni ko'pchilik bo'lib o'tkazishimizga asqotadi".

VASHINGTONdagi ham bir necha go'shalarda Navro'zga bag'ishlangan bayram tantanalarini o'tkazildi. Har doimgidek, ushbu bayramlar ham ko'tarinki kayfiyatda, bahorga xos beg'uborlik va musafolik nafasi bilan o'tdi.

AQShda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimizning har bir xonadonida Navro'z xursandchilik bilan nishonlandi. Ularda, ayniqsa, yosh avlod vakillarining faol ishtirok etishini an'analarimiz boqiyiligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholasak, to'g'ri bo'ladi.

Toshpo'lat RAHMATULLA

(Davomi. Boshi 1-sahifada.)

Axir biz yoz kelishi bilan yo'llarda, ko'chalarda xirmon-xirmon qovuntarvuzlar turishiga ko'nikib qolganmiz. Amerikada esa bular tillo narxida. Shu tufayli men o'zbek qovunining Amerikada etishtirilishiga bevosita daxldor uch kishi bilan bog'landim. Ulardan ikkitasi fermer. Denis Stovell — Ramona (Kaliforniya shtati)dagi "Tom King Farms" xo'jaligi (rancho)ning sohibi. Mayki MakKenzi Eloy (Arizona shtati)dagi "Lusky Nickel" ranchosining egasi. Bu fermerlar O'zbekistondan keltirilgan qovun urug'larini 2010 yilda birinchi bor etishtirib ko'rganlar. Bizning uchunchi suhbatdoshimiz esa Frezno shahridan Richard Molinardir. U Kaliforniya universitetida qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha consultant bo'lib ishlaydi.

Birinchi savolimizga Denis javob berdi.

— **Siz o'zbek qovunlari haqida birinchi bor qachon eshitgansiz?**

— Bundan besh yil burun ozor-bayjonlik bir kishi mendan Astraxan tarvuzlarini sotib ola turib, o'zbek qovunlari yo'qmi, deb so'rab qoldi. Va yana o'zbek qovunlarini shu joyda o'stiriasizmi deb ham aytishdi. Men buni sinab ko'rishga qaror qildim. Ammo shu joyda muammo tug'ildi; urug'ni qayerdan olaman? Shu orada Afg'on qovunining urug'ini topdim va ekdim. Yaxshigina hosil berdi. Keyin men namanaganlik afsonaviy qovunchi Sharifboy Mo'yidinov haqida eshitib qoldim. 2009 yilda internet orqali e'lon berdim. Xullas, izlanishlar davom etdi. Toshkentlik Davron Rashidov degan yigit menga ancha yordam berdi. Tanishlari orqali qovun urug'i jo'natishdi. Ekib,



yaxshi hosil oldim.

Maykl:

Mening ranchomda o'zbek yigitlari ishlashadi. Ular o'zbek qovunini maqtashgani-maqtashgan. Uni shu erda ekishga qaror qildim, ammo butun Amerikani yalangoyoq qidirsam ham urug'ini topolmadim. Menga ham shu erdagi o'zbeklar va ularning tanishlari yordam berishdi.

Richard: Men o'zbek qovunlari haqida 1996 yilda, ya'ni bir guruh rus va qozoq



ki qovunning sifatiga ham ta'sir qiladi. Qovunlarni yig'ishtirishda ikkinchi mushkulotga duch keldik. Men qovun qachon pishadi va uni qachon yig'ishtirib olish kerakligini ham bilmasdim, bu haqda hech qayerda axborot yo'q edi. Shunga qaramasdan bu tillarang qovunlar yaxshi hosil berdi. Ularning shakari ancha yuqori edi.

O'ylaymanki, o'zbek qovunlarini shtatlarda etishtirish juda qiyin. Buning uchun

Kaliforniyada bosh muammo — bu nematodlar deb ataluvchi mayda hashorotlar hamda Qora-kulrang Gnil deb nomlanadigan qo'ziqorinli kasallikdir.

— **O'zbek qovunining AQShdagi kelajagi haqi-**



KALIFORNIYADA O'ZBEK QOVUNLARI YETISHTIRILMOQDA




Amerikaning farbiy qismidagidek, quruq va issiq iqlim kerak bo'ladi. Masalan, Missisipi, Missuri, va Nyu Jersida qovun ekib hosil olish yaxshi natija bermadi. Garchand bu shtatlarda havo issiq bo'lsa-da, namgarchilik darajasi ham ancha yuqoridir.

fermerlari Freznoda qovun etishtirishga ahd qilganlarida eshitgan edim.

— **Maykl, Denis, Sizlar 2010 yilda birinchi hosilni oldinglar, shundaymi? Natijalar qanday bo'ldi? Mushkulotlar qiyinamadi?**

Denis: Ha, bu poliz ekinini birinchi bor sotuvga chiqarganim 2010 yil edi. Birinchi mushkulot shunda bo'ldiki, qovun barg chiqarishi bilan uni kuncimon mog'or qoplab oldi. Bu o'sha yilgi namlik oqibati edi. Bunday hol Kaliforniyada har besh yilda takrorlanib turadi. Bu mag'or nafaqat shaker darajasini kamaytiradi, bal-



— **Richard, qishloq xo'jaligi bo'yicha ilmiy xodim sifatida aytingchi, o'zbek qovunini etishtirishda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?**

Richard: Frezno,

da nima deya olasiz?

Denis: Agar bu qovunlar quruq iqlimli G'arbiy Amerikada etishtirilsa, katta imkoniyatlar eshigi ochiladi, deb o'ylayman. Tanish bir oshpazim o'zining asosiy ovqatiga o'zbek qovunidan sous tayyorlabdi. Hatto Meksika va Janubiy Amerikaning boshqa mamlakatlarida qishki qovunlar etishtirish imkoniyatlari ham bor. Shu yil ko'proq qovun ekish uchun boshqa ekin maydonlarini qisqartirmoqchiman. Menga kuncimon mag'orni yo'qotishim uchun maxsus organik purkagich kerak bo'ladi. Shuningdek, o'zbek va qoraqalpoq tarvuzlarini etishtirish uchun ham katta imkoniyatlar bor. Afsuski, ularning urug'ini olish imkoniyatim yo'q hozircha.

Maykl: Hozir o'zbek qovunlarining istiqboli haqida aniq bir narsa deymayman. Biz jug'rofiy jihatdan biroz chegaralanganmiz. Biz hamma joyda ham qovun ekolmaymiz, ularni bizdan



Amerika biznesini tushunib olishi kerak. Bu ishda ularga yordam berishga hamisha tayyorman.

Richard: Menimcha, o'zbeklarning qovunidan shirinroq qovun dunyoda yo'q!

Umida HOSHIMOVA suhbatlashdi.

DADAJON, I'M SORRY



yoshlar hayoti bilan bevosita bog'liq. Yoshlarimiz hayoti esa qusurlarga bisyor. Ular, eng avvalo, nafaqat tilga, hatto kitob o'qishga ham ixtiyorsizdirlar. Ular dastlab kitob bilan xayrlashib, kinoga, televizorga oshno tutindilar, hozir deyarli cularni ham tashlab, komp'yuterga, internetli telefonlarga mukasidan tushgan. To'g'ri, ularni bilish, shug'ullanish kerak! Ammo til va kitobni unutish hisobiga emas!

“O'tgankunlar”, “Kecha va kunduz”, “Diyonat” asarlaridagi o'zbek tilining ichki bir go'zalligi, mahobati, sehri, maftunkor jilolaridan bebahra o'zbekni o'zbek deb bo'ladimi? Har qanday kino, spektakl yoxud ma'ruza badiiy kitobchalik o'zbek tilining go'zalligini ko'rsata olmaydi. Shu tufayli bolalarimizga kitobni sevish ilmini ham o'rgatishimiz kerak. Buning uchun katta qonun va qoidalar qabul qilish shart emas. Buning uchun millatni sevish, uning tilidan lazzatlanish kerak! Kitob ana ilmga o'rgatuvchi eng bebaho manbadir.

“O'g'lim yoki qizim kitobga qaramaydi, uyda ham bir-biri bilan o'rischa gaplashadi, biz o'zimiz o'rischada qiynalganimiz uchun ularning bu tilda ravon gapirishini ko'rib, juda quvonganmiz, keyin bilsak, bu noto'g'ri yo'l ekan. Endi ularni bu yo'ldan qaytarish qiyin bo'layapti. Kelajakda ularning taqdiri nima bo'ladi?”

Bu 10-15 yil ilgari (ba'zida hozir ham) O'zbekistondagi shaharlarda yashovchi akasariyat oilalarning kundalik gapi edi. Bu gap oilalardan chiqib, katta-katta minbar-

larda yangradi, gazeta va televidenieng kundalik tashvishiga aylandi. Juda katta sa'y-harakatlar tufayli, harqalay, katta fojining oldi olinganday boldi. Biroq bu bilan tashvishlar tugamadi.

Yaqinda Nyu Jersidagi o'zbeklardan biri nolib qoldi.

— Bizni ota-onalarimiz qat-tiq tergarimdi yoki o'zimizda mehr kuchli bo'lganmi, har qalay, chet ellarda yashasak ham o'zbek tilini yaxshi bilardik, vaholanki, biz bu tilda faqat oilada gaplashardik. Garchand alifbosi boshqa bo'lsa-da o'zbek tilida kitoblar o'qirdik. Ammo til masalasida farzandlarimizga o'rnak bo'lolmayapmiz. Ular ona tillarida deyarli gaplashmaydilar. Bu juda xatarli fojidadir.

Darhaqiqat, bu ulkan kulfatdip. Nahotki, Navoiyning, Ogahiyning, Boburmirzo, Furqat, Qodiriyning avlodlari o'z bobokolonlarining asarlarini o'qiy olmasalar? Hafaqat o'qiy olishmasa, balki tushunmasalar? Gaplasholmasalar? Bu millatning parokandaligi emasmi? Millatning tanazzuli emasmi? Vatanim, millatim, o'zbek xalqi deb ko'kragiga mushtlaganlar qani? Shu el, shu elatning kelajagi deb jonidan kechganlar ruhlarining chinqirig'i Sizni bezovta qilmaydimi? Ko'zingizni ko'r, oyog'ingizni shol qilmaydimi?

Bugun Amerikada va umuman xorijda yashayotgan o'zbeklarning oldida ham ana shunday beechim muammolar turibdi. Biz bu muammoni nega beechim deb aytayapmiz. Negaki bu bitta odamning yoki bitta oilaning hal qiladigan muammosi emas. Bu katta davra va anjumanlarda, rasmiy va norasmiy minbarlarda, qolaversa, davlat miqyosida hal etiladigan masaladir. Kerak

bo'lsa bu O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarining ham birlamchi vazifasidir. Ular har xil davralarda o'yin-kulgi qilib yurgandan ko'ra, millat vakillarini bezovta qilayotgan ana shunday masalalar bilan jiddiy shug'ullansalar yaxshi bo'lardi.

— O'zbeklar do'rji bo'lib yashayotgan joylarda maktab dasturlariga ona tilini o'rganishni ham kiritish kerak, -deydi ancha yildan buyon AQShda yashayotgan asli buxorolik Rahmat aka. — O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi balki xorijdagi bolalarni o'zbek tiliga o'qitish dasturlari, darsliklari ishlab chiqsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

— Balki buni parlament darajasida hal etish kerakdir, -deydi yana bir suhbatdoshimiz asli jizzaxlik Shavkatjon. — Ehtimol, ushbu yo'nalishda qonun ham qabul qilinadi. Axir, farzandlarimizni kelajagimi, deymiz. Kelajagimiz haqida gap ketar ekan, u hamisha va har qanday sharoitda masalalarning eng oldingi qatorida turishi kerak! Mening han ikki hafar farzandim bog'chaga boradi, hademay ular ingliz tilidagi maktabga borishadi. O'zbek tilini bilish boshqa, o'zbekcha adabiyotlarni erkin o'qiy olish boshqa. Men farzandlarimning chala o'zbek bo'lib qolishini xohlamayman.

Shavkatning bu gaplarini eshitib, Abdulla Oripovning bir she'ri yodimga tushdi.

Ming yildirki, bulbul kalomi O'zgaraydi, yaxlit hamisha. Ammo sho'rlik to'tining holi O'zgalarga taqlid hamisha

Ona tilim sen borsan, shaksiz, Bulbul kuyin she'rga solaman.

Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz, Men ham to'ti bo'lib qolaman.

To'tilikdan Xudo asrasin! O'z farzandingning ona tilida gapirishdan qiynalib, fikrini boshqa zabonda tushuntirishga urinayotnligini ko'rish azobini hech kimning boshiga solmasin! Til bilgan yaxshi, ammo bu ona tilini xo'rash, oyoqosti qilish evaziga bo'lmasligi kerak!

Bir qo'shnim bor. Ba'zida (aniqrog'i, kayfi oshganda) “yorilib qoladi”. Xotinini yomonlaydi, farzandlaridan noliydi.

— Bolalarim o'zbek tilida gapirolmaydi, -deydi u. — Ularga o'zbekchalab gapirsam, ayolim meni koyiydi. Siz tufayli men bog'cha opasidan gap eshitayapman, u bog'chada ham ba'zi o'zbek so'zlarini ishlatib yuborayotgan ekan, yer yorilmadi — kirib ketmadim. Bu nima qilganingiz, bolalarni chalg'itmang, o'rganar o'sha qoloq, hech kimga kerak bo'lmagan tilingizni. Axir, “tilsizlik”dan o'zimiz qancha qiynaldik, deydi. Kecha kichkinamni yonimga olib, tushuntirmoqchi bo'lsam, “dada, I'm sorry” deb jo'navordi. E, sening “sorry”ngga... dedim, kechiring desang churang tushib qoladimi?

Shunaqa gaplar, aziz gazetxon! Haqiqatan ham, bu do'ppini olib qo'yib, jiddiy bosh qotiradigan masala. Bu chinakamiga millat taqdiri, kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan muammodir. Uni hal etishda, bizningcha, ulug' hamjihatlik kerak! Bu borada Sizning fikringiz qanday? Maktublaringizni, taklif va mulohazalaringizni kutamiz. Mabodo ko'p gapirib, vaqtinigizni olgan bo'lsam, I'm sorry!

Alisher AYMATLI.

AFSONA RESTAURANT

Address: 414 Ditmas Avenue, Brooklyn, NY 11218. Tel.: (718) 633-3006



HALAL MEET AND GROCERY



Madina-R Inc Adress: 407 Ditmas Ave Brooklyn NY 11218 Phone: 718.633.0240

Tahririyatimizga mushtariylarimizdan dastlabki xatlar kela boshladi. Demak, bizning mehnatimiz samarasiz ketmabdi. Demak, yaqin-yiroqlarda bizning maslakdoshlar bor va ular biz bilan muloqotga kirishga, fikrlashishga, kerak bo'lsa bahslashishga tayyordirlar. Bu bizni juda ham quvontirdi. Zero, yo'l boshida ta'kidlaganimizdek, "Vatandosh" millat va elatidan, e'tiqodi va yoshidan qat'i nazar, hur fikrli insonlarning gazetasidir. Biz quyida ana shunday mushtariylarimizning xatlarini e'lon qilayotirmiz.

MAQOLA YOZSAM NASHR QILASIZMI?

Assalomu alaykum tahririyat a'zolari! Navro'z ayyomingiz muborak bo'lsin. Bayram oldi vatandoshlar uchun o'zbek tilida gazeta chiqarib, katta savob sohibi bo'ldingizlar. Bu yo'ldagi zahmatli ishlaringizga rivoj tilayman.



Endi bevosita gazetaga kelsak, Abdulla Xo'ja to'g'risidagi maqola ko'pchilikni qiziqitirdi. Keyingi sonlarda u kishining oilasi tarixidan ozgina gapirilsa juda ma'qul ish bo'lardi. Masalan, oilasi nimaga Marg'ilondan ketgan, Kobulda hayotlari qanday kechgan va u joydan nimaga ketishgan, oilasi boshiga qanday qiyinchiliklar tushgan kabi savollar ko'pchilikning dilida va tilida borligi, shubhasiz.

Muallif maqolada sanab o'tgan olimlarni, afsuski, chet elda ularning aynan hozirgi O'zbekiston hududidan chiqishganini bilishmaydi. Men Angliyada o'qiganimda universitet kampusida arab madaniyati haftaligi o'tkazilgan. U erda Ulug'bek, Bobur, Al-Xorazmiy va qolganlarni "bular buyuk arab olimlari" deb tanishtirishgan. Men, "Yoq, bular O'rta Osiyoliklar. Mana, Al-Xorazmiy stendini ko'rsatib turibsiz, hozirda Xorazm degan joy bor, uni qayerda joylashganini bilasizmi?", deb so'rasam, "Qozog'istonda" deb javob berdi. Bunga nima deysiz, endi?

Malik akaning o'zbek tili haqidagi maqolasi yaxshi. Ayniqsa, o'quvchilari yozgan maqolasi o'zbek tilini o'rganishga jiddiy munosabatni aks etadi.

Zulxumor Mirzayevaning maqolasida o'zbek adabiyoti chet tillariga o'girilganini tushundim xolos, lekin shu narsalar ham tushunarsiz, og'ir tilda yo'zilgan.

"Kristis fosh etildi" kitobini ikki yil oldin o'qigan edim. Maqola qiziq chiqibdi.

Biometrik pasportlar haqidagi maqola ma'lumotlarga juda boy.

Fikrimni tugatdimu o'ylanib qoldim. Xayolimda kimdir "Tanqidga zo'rsiz, ammo o'zingiz gazetaga nima bermoqchisiz?" deyotganday. Nasib qilsa, tez kunlarda maqola tayyorlab beraman. Nashr qilasizlarmi?

Umida HOSHIMOVA,
Falls Church city, Virginia.

"BU O'ZBEKISTON EMAS, AMERIKA!"

"Vatandosh"dagi axloqiy maqolalarni o'qiy turib, yaqinida kuzatgan bir voqea yodimga tushdi.

Yoshgina juvon onasi tengi ayolga qo'llarini paxsa qilib o'shqirardi.

— Hey, nima haqqingiz bor menga aql o'rgatishga?! Qizimni gapirasiz. Siz onammisiz, qaynonammisiz? Qanday qilib shuncha yil maktabda ishlagansiz o'zi? Sadqayi muallim keting!

Ayol o'tgan-ketganlardan uyalib, juvonga yalindi:

— Kelin, baqirmang, uyat bo'ladi. Axir, yon qo'shnimiz, tag'in begona yurt-da bo'lsak.

Juvon qo'lini siltab, yana bir beparda gap aytdi.

Ayol lablarini tishladi.

— Uyat-e kelin, onangiz tengiman, yoshimni hurmat qiling, aqalli. Bu nima deganingiz?

Juvonning lablari gezarib, ko'zlari chaqchayib ketdi.

— Yoshingiz katta bo'lsa nima qilay, boshimga o'tqazaymi? Hurmat, izzat deysiz? Bu yer sizga O'zbekiston emas, Amerika!

Ayol "yopiray" deb yoqasini ushlab, nari ketdi...

O'zbeklarda qadimdan sharm-hayo, andisha, kattalarga hurmat-izzat kabi fazilatlar nihoyatda qadrlanib kelingan. Ayniqsa, o'zbek ayolidagi ibo-andisha, kamtarlik xislatlari boshqa xalq ayollariga namuna bo'lgudek. Bu tushunchalar hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ammo haligi juvonga o'xshaganlar uy-joyiga qo'shib Amerikaga sharm-hayoni ham qoldirib kelganga o'xshaydi. "Birniki — mingga, mingniki — tumanga" degan naql bor. O'sha juvonga o'xshagan andishasizlarni ko'rgan boshqa xalq vakillari "O'zbek degani shu ekan-da" degan xulosaga bormaydimi? Ko'p yillar xorijda yashab, o'z milliy tarovatini yo'qotmagun bir onaxonni bilaman. Hatto farzandlarini ham milliy an'analar ruhida tarbiyalagan.

Qayerda bo'lsak ham o'zligimizni, o'zbekligimizni unutmaylik! "Vatandosh"ning aynan ushbu mavzuni ko'targanini qo'llab-quvvatlayman.

Bashorat TEMUR.

GAZETAGA ADVOKAT KERAK EMASMI?

"Sehrli diyor"da o'zbek tilida chiqqan birinchi gazetani o'qib, juda hayajonlandim. Turli tillarda nashr etiladigan gazetalarni ko'rib, armon qilardik. Va nihoyat, armonlar ketib, orzular ushaldi. Undagi rang-barang maqolalarni maroq bilan o'qiyapmiz. Bu yaxshi, albatta. Ammo bir muammo ham bor. Bu qonun va huquqiy ilm muammosidir.

Ayni paytda musofirchilikda yurgan vatandoshlarimizning aksariyati bu yurtning qonun-qoidalarini yaxshi bilishmaydi. Amerikada esa qonunni bilmasdan yashab bo'lmaydi. Bu mamlakat fuqarolari, avvalo, xudodan, keyin qonundan qo'rqishadi. Turmush chorahalarida esa har bir qadamda muammoga duch kelamiz. Xo'sh, ularni qanday hal etish mumkin?

Ana shu o'rinda gazeta "labbay" deb, eng oldingi o'ringa chiqishi ayni mudao. O'ylaymanki, bu, bir tomondan, yurtdoshlarimizning mushkulini oson qilsa, ikkinchi tomondan, gazetaning o'quvchilarini ham ko'paytiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, gazetaning o'z advokatlari bo'lishi kerak. Ular bilan turli mavzularda savol-javoblar, suhbatlar uyishtirib turilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Mening ham shu sohaga qiziqishim katta. Agar tahririyat lozim topsa, ushbu mavzuni yoritishga men ham o'z hissamni qo'shgan bo'lardim. Gazeta tahririyatining zahmatli mehnatlariga baraka tilab qolaman.

Azimjon ESHONQULOV.

TAHRIRIYATdan: ana shunaqa gaplar... Tahririyatga bo'layotgan qo'ngiroqlarining soni oshsa oshayaptiki, kamaygan emas. Ilohim, kamaymasin ham. Ular maqtov bilan bir qatorda achchiq, ammo ochiq gaplarni, fikrlarni ham aytishmoqda. Zero, bu juda yaxshi narsa. Negaki, haqiqat bahslardagina tug'iladi. Bahslashayotganlar esa bizning do'stlarimizdir. Ular bizga o'z ko'maklarini ham tavsiya etishmoqda. Shunday ko'makdoshlar bor ekan, demak, bizning yukimiz yerda qolmaydi!

UzbekTel.com
UzbekTel
Yaqinlarga yaqinroq bo'ling

www.UzbekTel.com
Ўзбекистон ва жахонга энг арзон ва сифатли алоқа хизмати

MOVING

Shohjahon. Inc

Shohjahon, Inc
Address:
1073 Brighton
Beach Ave.
Brooklyn, NY. 11235.
Phone: 646.705.8303

(Davomi. Boshi avvalgi sonda.)

Qizil qo'shinning zulmi, uning asoratini anglash uchun hatto Vatanda yashayotgan bizdek farzandlarga ham uzoq vaqt kerak bo'ldi. Aslida qismatu qismatdoshlik — Vatanni boy berish kabi og'ir judolik hammamizga tegishli edi. Faqat bu judolikni kim qanday tushundi — hamma gap shunda. Birovlar xorijda, birovlar vatanda...

Bolaligimdanox Buxoroning g'aroyib bozorlari, turli-tuman saylgoxlari emas, vayrona shaharning xayoliy mahobati o'ziga chorlar. Ark, Katta minora, Taxt joyi, Namozgoh kabi qadim bobomeros o'zlik, qiyofa, davlatchiligimiz tarixi aks etgan muqaddas joylar qarshisida soatlab xayol surib, ulardan ajral-

nashdan tashqari o'zgalarga ham bizni shu tarzda etkazishga harakat qildilar. Chunki qalam dushmanning qo'lida edi. Ayting-chi, biz ham siz singari Vatanda tug'ilishimiz mumkin edimi? Yoki Amirning o'g'li bo'lganimiz uchun biz aybdormi? Axir, tug'ilish insonning erkidan tashqarida emasmi?

Otam 23 yil Afg'on tuprog'idaumrguzaronlik qildilar. Garchi biz ul muhtaram padarimizni taftish qilish huquqidan mahrum bolsak-da, biz tutqunlikda, muhojirlikda bilishimiz mumkin sanalgan oilaviy munosabatlarda erkin edik. O'sha davr nuqtai nazari bilan qarasangiz, Amir otamizning ham yo'l qo'yan kamchiliklari, sustkashliklari bo'lishi, tabiiy. Beayb — Parvardigor. Atroflaridagi jaholatparastlarn-

Buxoroning so'nggi amiri Said Muzaffar Olimxon. 1944-yil aprel oyida vafot etgan. Kobul shahri tevaragidagi "Shahidoni islom" ("Islom shahidlari") qabristoniga dafn etilgan.



YURAKDAGI BUXORO

masdim. So'nggi — mang'itlar sulolasiga mansub amirlar tarixini ham deyarli bilmay, o'qiyolmay shu yoshga yetdik. Aldov va xiyonatga o'ralgan "Buxoro xalq inqilobi" bois shakllanib kelayotgan avlodlar qirildi, yo'qotildi' qolganlari xorijga tariqdek sochilib ketishdi. Biz tengi avlodga yolg'on guvohliklar, sozlashirilgan, to'qilgan tarix, "bosmachi"yu "zulmkor", "mustabid", "o'zidan boshqani o'ylamaydigan" amirlar xotirasigina qoldi. Shulardan biri — Amir Sayyid Olimxon.

Buxoro, ayniqsa, nisbatan bizga yaqinroq 1918-1920 yillardagi voqealar mustaqilligimiz tarixi bilan chambarchas bog'liq muhim sanalardir. Men shu niyatda ko'pdan muhojir hamyurtlar bilan suhbatlashish, ularning xotiralarini yozib, o'rganishni niyat qilardim. Tarixiy asar yozish ucun uzoq-yuluq hujjatlaru tasavvurning o'ziyoq etarli bo'lishi ham mumkin. Lekin men qiziqqan, bilishni istagan mavzu — tarix shundoq yonginamizda, hali tirik tarix bo'lib yashayotgan hamyurtlar edi...

Nihoyat, men orzulagan o'sha imkon, avvalo, Alloh, so'ng Mustaqillik bois o'z oyoqlari bilan eshik qoqdi. 1993-yilning oxirida Amir Olimxonning uch o'g'li bilan ko'rishib, suhbatlashdim. Ushbu suhbatda o'shal uchrashuvning ayrim lavhalarini xotirlashga urindim. Suhbatda Olimxonning uch o'g'li — Sayyid Umarxon, Sayyid Kabirxon, Sayyid Ibrohimlar hozir edilar.

— Sizlarga bir ro'yo yoki tushday tuyilmayaptimi, men bilan suhbatlashish? Mana, Sizlar ota yurtida Vattanning oddiy bir farzandi — qalamkash savollariga xotirjam, hadiksiz, tinchgina, xullas, o'z istagingizga zid bormay — ixtiyoriy bir tarzda javob berib turibsizlar. Axir, oradan oz emas, ko'p emas, 70 yildan ziyod vaqt o'tdi. Sizlar Afg'on tuprog'ida tug'ildingizlar. Vatan surati sizlarning yuringizga, ko'zingizga asosan ota xotirasi tufayligina o'rnashgan, shunday emasmi?

Sayyid Umarxon: — Bale, to'g'ri so'yladingiz. Sahroyining aqli ko'zida, degan ma'ni bor. (Bu hikmatni otam rahmatlidan eshitganman). Chunki, u ko'rmasa, ishonmaydi. Buning ayni fursatdagi holimizni o'sha sahroyiga qiyoslash mumkin.. Eshitish boshqa gap... Vatan ozodligini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik, bizning tasavvurimizda ozodlik ushalmaydigan, baqt yetib, ushalgan taqdirda ham bizlar ko'rolmaydigan armon edi. Axir, bu hazil gapmi, hazil hayratmi, xayoldagi, orzudagi, duolarimizdagi niyat vojib bo'ldi-ya!

Sayyid Ibrohim: — Hazrat otamizning qadamlari tekkan poyi ostonani ko'zlarimizga surdik. Axir, bu kunni ko'rmay ketish ham mumkin ediku.

Armonu sog'inchlarimni ko'pincha she'rlarimda aytganman. Bu dunyoda eng sodiq, ishonganim, farzandimdek suyganim — she'r. U meni aldamaydi, sotmaydi, u menga panoh...

— Qullik-qaramlik davrining Sizlarga, ayniqsa, padaringiz Sayyid Olimxonga munosabati dushmanlarcha edi. Yaqingacha otangizni "Tillo kamarli qochoq" deb yozishdi...

Sayyid Umarxon: — Ha, biz farzandlar xuddi shunday muhitda ulg'aydik. Ular bizni dushman sa-

ing kaltabinliklari tufayli "Yosh buxoroliklar" bilan o'rtalarida nizo chiqqani rost gap. Lekin biz farzandlar o'z otamizni xuddi sizlar yozgandek, hech qachon sotqinlikda, qo'rqqoqlikda, xalqning qonini zulukdek so'rishda ayblamaymiz. Otamiz to ko'zlari yumulgunga qadar Vatan ozodligi uchun kurashdilar, desam lif emas. Mana, biz o'g'illar bunga guvohimiz, kafilmiz. Taqdir otamni ko'p sinovlarga soldi. Uch akam Moskovda, zulmkor bolshovoylar qo'lida qolib ketdi. Ularni yonlariga chorlash uchun qilingan harakatlar... Baribir ul muhtaram zot qizillarning nayrangiga uchmadilar, qayta aldanishni istamadilar.

Otam tutqinlikdagi akalaram haqida: "Agar ular mening farzandlarim bo'lsa, dushmanga egilmaydi, ular qizil bo'lolmaydi, ularning bobolari amir o'tgan, yurt so'ragan...", deya pichirlab, ba'zan g'azabga to'lib aytganlarini ko'p bora eshitganmiz. Umuman, og'ir taqdir nafaqat otamni, bizni-da ayamadi. Yurtdan, toju taxtdan, uz o'g'li va yana imkonidagi jamiki afzalliklardan bira to'la ayrilish azobini his eta olamizmi? Bining ustiga muhojirlik, o'zga hukmdor, o'zga yurt marhamatiga, kamsitishiga chidash... Umr bo'yi ta'qibda yashadik, bizning qadamimizni poylab kun o'tkazganlar, oila boqqanlar bo'ldi.

— Bizni otangiz haqidagi aynan Sizning xotiralar-ingiz, kuzatishlaringiz qiziqtiradi.

Sayyid Umarxon: — Otam haqlarida yozishni, film yaratish istagini bildirayotganlar ancha-muncha. Siz aziz yurtdoshlarimdan bu matlabni eshitish biz uchun nihoyatda quvonchli. 1920 yillar bilan bog'liq Buxoro tarixini o'rganish va shu asnodda asarlar yozish avlodlar ruhi, qolaversa, xalqimiz oldidagi buyuk burchni his etish, qadrlash va bu muhabbatni amaliyotga ko'chirish degani. Xudo quvvat bersin sizga... Lekin bu savolingizga to'la javob berish uchun har ikkimizga ham fursat lozim. Ishonamanki, bunday fursat topilar, xudo sohlasa, biz yana uchrashamiz. Shunday bo'lsa-da, so'radingiz, bir-ikki sifatleri haqida aytay. Otam a'lo darajada mergan edilar. Otgan o'qlari nishonga bexato tegardi. Afg'on shohi Omonullaxon bilan ovda birga tushgan suratlari bor. Har kim o'zi otgan o'ljasini yoniga to'plab, namoyishkorona turibdi. Otamning oyoqlari ostida quyon, qirg'ovul, g'oz va yana talay qushlar chosh, yana ul zotning eg-nilarida milliy libos, Afg'on shohi esa inglizlarning kitelida. Aytishlaricha, Omonullaxon ov boshlanishi oldidan otamizga: "Bu ro'dapo sarpolaringiz bilan ov qilolmaysiz, choponingizning bari shox-shabbaga ilinib, o'zingizni otib qo'yman", deb kesatgan ekan.

Hazrat otamiz qattiq iztirobga tushgan chog'larida yonlariga hofizlarini chorlab, qo'shiq, nolali kuy-lar tinglardilar. Oxirida hofizlarni chiqarib yuborib, o'zlari tanbur chalardilar. Tunlari Bedilni o'qib, uzluksiz alamni bir dam unutishga harakat qildilar. Otamga tegishli har bir buyumga biz qo'l urmasdik. Vafotlaridan so'ng qararak, uch sandiq kitob... Umuman, yillar o'z ta'sirini o'tkazdi, hamisha qaddi tik Amir otamiz bora-bora o'ta ziyoli, g'amgin, ezilgan qiyofaga kirdilar.

Yana Sizga aytsam, ul zotni deb ergashgan jamiki yurtdoshlarning barcha to'y-hashamlarini (farzand to'ylari, turli ma'raka, tadbirlar) otamiz o'z yonlaridan xarjlab o'tkazardilar. Dastlab Afg'on shohi otamga ancha yuqori miqdorda nafaqa tayin etdi, muhojir shoh izzat-ikromi rasman yo'lga qo'yilgan edi. Faqat shart shuki, tortilgan chiziqdan chetga chiqmaslik, har laha o'zining taxtidan ayrilgan, o'zgaga qaram ekanligini unutmashlik...

Sayyid Ibrohim: — Biz ikki marta xorlikka uchradik. Birinchisi, otamni zo'rlik bilan Vatandan chiqib ketishga majbur etishdi. Ikkinchisi, biz farzandlar Afg'ondan chiqib ketdik. Afg'ondan piyoda, kechalari masjidlarda tunab, Pokistonga keldik. Yo'l azoblari...

— Aytishlaricha, Amir Olimxonning qiyofadosh-lari ham bo'lgan, deyishadi, shu gap rostmi?

Sayyid Umarxon: — Rost. Otamizga ko'p bora suyiqasdlar uyushtirishdi. Allohning marhamati bilan har gal omon qoldilar. O'zim shohidi bo'lgan bir voqea: ba'zan ko'chaga foytunda chiqardilar. Bir ertalab ul zot foytunni tayyorlashni buyurdilar. Amakim Sayyid Siddiqxon To'ra: "Shu bugun siz chiqmang, tush ko'rdim, falokat sodir bo'ladi", deb aytdilar. Otam ko'nmadilar. Foytungga o'tirishlari bilan foytun port-ladi, qo'llari sindi, o'zlari omon qoldilar...

— Boya Siz hofizlarni tilga oldingiz, ular kim, taqdirleri qanday kechdi?

Sayyid Umarxon: — Uchala nhofiz ham Vatandan brogan kishilar edi. Hazratqul, Hoji Ismoil, Elmurod ismli bu san'atkorlar to so'nggi damgacha otamning yonlaridan jilmadi. Ularning ham taqdiri bir kitob bo'lgulik. Hazratqulning vafotiga uch yil bo'ldi. Ha, hofizlar ota qadrdon edi.

— Yosh o'tgan sayin kishi o'ziga hisob beradi, ma'lum xulosalar chiqaradi...

Sayyid Umarxon: — Xulosa shuki, biz hech qachon qo'limizni birovga ta'na bilan uzatmadik. Yoshlikdan o'z kunimizni o'zimiz ko'rishga, kasb-hunar o'rganishga bel bog'ladi. Har qanday sinovlar oldida Amir Olimxonning o'g'li, degan rutbamizga sodiq qoldik. Taqdir bizni dunyoning tyrl burchaklariga — Amerika, Olmoniya, Turkiyaga sochib yubordi. Biz Vatan ozodligini o'zga ellarda yashab, eshitdik, quvondik, ko'z yoshi to'kdik. Sizlardan bir o'tinchim bor: ahil bo'linglar, Vatan bitta. Uni ichida yashab turib ham yo'qotish mumkin...

Rajabboy RAUPOV

O'zbek xalqining atoqli yozuvchisi O'tkir Hoshimovning asarlari, mubolag'asizaytishmumkinki, O'zbekistondagihar bir xonadondan topiladi. U o'tgan asrning 60-70-yillarida adabiyotga o'z hikoyalari bilan kirib keldi va tez orada odamlarningardoqliyozuvchisigaaylandi, ustozadiblarning e'tiborini qozondi. "Urushning so'nggi qurboni" dan tortib, "Nur borki, soya bor" gacha barcha asarlari do'konu kutubxonalarda tala-tala bo'lib ketdi. Onalar to'grisidagi kitobi esa unga nafaqat mamlakatda, balki chet ellarda ham shuhrat keltirdi. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» adibning qariyb yarim asrlik kuzatuvlari. Yozuvchining o'zi ta'kidlaganidek, bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli xulosalarim...

Hurmatli gazetxon! "Vatandosh" tahririyati ulug' adibimizning ruxsati va rag'batini bilan uning asarlaridan muntazam namunalar berib borishni ixtiyor etdi.

TAQDIRI AZAL

Xudo yozganini bandasi o'chirolmaydi.
Xudo berganini bandasi tortib ololmaydi.

DEVONAI HAQGO'Y

Telbalarga ta'zim qiling!
Yuzta donishmand aytolmagan haqiqatni bitta telba aytadi!

DARVINGA E'TIROZ

Darvin ta'limoti noto'g'ri. Odam maymundan emas, m a y m u n odamdan tarqagan. Oyog'i yerdan uzilmaganlar odam bo'lib qolgan. Oyog'i yerdan uzilganlar esa maymun bo'lib daraxtga chiqib ketgan... Bu jarayon hamon davom etmoqda...

MUNOJOT

Xudodan, umr ber, deb so'raganlarni ko'rdim.
Xudodan, baxt ber, deb so'raganlarni ko'rdim.
Xudodan, farzand ber, deb so'raganlarni ko'rdim.
Xudodan, davlat ber, deb so'raganlarni ko'rdim.
Xudodan, omad ber, deb so'raganlarni ko'rdim.
Faqat... Xudodan, ey, yaratgan Egam, men — nodonga bir chimdim aql ber, deb so'ragan bandasini ko'rganim yo'q!

O'KINCH

Daraxtning meva tugishga shay turgan qanchadan qancha gullarini bemavrid shamollar uchirib ketgani singari umrimning qanchadan qancha onlari hasadgo'y va munofiqlar yetkazgan jarohatlardan og'rinish-u, turmush ikir-chikirlarini o'ylash bilan besamar o'tayotganiga o'kinaman...

ENG AQLLI JONIVOR

Dunyoda eng aqlli jonivor — baliq! Birinchidan, soqov. Ikkinchidan, muttasil dumini likillatadi!

«TABIAT GULTOJI»

Kiyik och qolmaslik uchun ko'kat yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Odam ko'katni ham yeydi. Kiyikni ham yeydi. Ko'ngil xushi uchun sherni ham o'ldiradi... Keyin... urush qilib, bir-birining boshini yeydi...

«BILIMDON»

Hamma narsani bilaman, deydigan odam hech nimani bilmaydi!

CHEGARA

Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko'ra sholg'om eksa, qozoniga tushadi-ku.

Odamzod nima uchun bulbul chax-chaxini eshitganda entikib ketadi? Undan ko'ra bulbulni sho'rvaga solib pishirsa, nafsini qondiradi-ku.

Odamzod nima uchun osmonda charaqlab yotgan yulduzlarni ko'rib, ko'ngli zavqqa to'ladi? Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku.

Odamzod nima uchun kitob o'qiyotib, suyuqlik qah-ramoni o'lib qolsa yig'laydi? Uni yozuvchi «ichidan to'qib chiqargani» ni biladi-ku?

Odamzod nima uchun o'zga yurtlarga borib behisob mol-dunyo orttirsa-yu, ittifoqo bolaligi kechgan kulbasi tushiga kirib qolsa, tuni bilan yig'lab chiqadi? Axir u shohona qasrda yashaydi-ku.

Odamzod nima uchun bolasining boshida alia aytadi? Go'dak alia eshitmasa uxlamaydimi?

Odamzod nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon awal o'tib ketgan bobosining qabrini ziyorat qiladi? Marhum ularni ko'rmaydi-ku?!

Gap shundaki, Odamzodni hayvonotdan ajratib tura-digan chegara bor. Bu chegaraning nomi Ma'naviyat deb ataladi!

YIGIRMANCHI ASR

Yigirmanchi asrda sil, bezgak, chechak kabi bedavo dardlarga shifo topildi va millionlab insonlar hayoti saqlab qolindi. Yigirmanchi asrda «spid» degan bedaVo dard paydo bo'ldi va millionlab insonlar hayoti xavf ostida qoldi.

Yigirmanchi asrda daxriylar tuzumi barham topdi va millionlab insonlar iymon sari yuz tutdi. Yigirmanchi asrda diniy ekstremizm avj oldi va millionlab insonlar hayotiga qutqu soldi.

Yigirmanchi asrda mustamlakachilikka chek qo'yildi va millionlab insonlar hurlikka chiqdi. Yigirmanchi asrda fashizm va totalitarizm avj oldi. Millionlab insonlar Gitler va Stalin qamoqxonalarida qurbon bo'ldi.

O'TKIR HOSHIMOV

Daftar hoshiyasidagi bitiklar

Yigirmanchi asrda «uchar gilamlar», «oyinai jahonlar», kompyuterlar kashf etildi va millionlab insonlar ularning xizmatidan bahramand bo'ldi.

Yigirmanchi asrda ikki dafa jahon urushi ro'y berdi va millionlab insonlarning yostig'i quridi.

Yigirmanchi asrda samoviy kemalar yaratildi va inson qadami Oyga yetdi.

Yigirmanchi asrdamillionlab insonlarni qirib tashlovchi yadro quroli o'ylab topildi va sinovdan «muvaffaqiyat bilan» o'tdi...

Yigirmanchi asr — donishmandlar asri.

Yigirmanchi asr — telbalar asri.

XUDBIN

O'zidan boshqa hammani yomon ko'radigan odam oxir-oqibat o'zidan boshqa hammaning nafratiga yo'liqadi.

XAVFLI ODAM

Yaxshigayam, yomongayam birdek yaxshi ko'rinishga urinadigan odam eng xavfli odamdir!

INSON VA SHAYTON

Ba'zilarga hayron qolasiz. Qilg'ilikni qilib qo'yadi-da, «Bilmay qoldim, shayton yo'ldan urdi», deydi... To'g'ri, odamzod qonida shayton vasvasasi aylanib yurishi — borgap.

Ammo... Shunaqangi erkaklar borki, qirqta urg'ochi shaytonni bolalatib tashlaydi. Shunaqangi ayollar borki, qirqta erkak shaytonni aliment to'laydigan qilib qo'yadi...

Hamma aybni shayton sho'rlikka to'nkayvermang!

AYOL QALBI

Ayol qalbi teskari magnetga o'xshaydi: yaqinlashsang — uzoqlashadi, uzoqlashsang — yaqinlashadi.

YOQIMLI DUSHMAN

Umrbod ortingdan ergashib yuradigan yoqimli dushman — nafs!

SALTANAT

Saltanat — quyoshga o'xshaydi. Juda yaqin borsang, yonib ketishing, juda uzoq ketsang, muzlab qolishing mumkin.

(Davomi kelgusi sonda.)

OTA-ONAMNI AQSHGA CHAQIRSAM BO'LADIMI?

HUQUQIY MASLAHATXONA

AQShda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimiz bu mamlakatda qonunni bilish zarurligidan, uning normalariga rioya etish va bu hujjatlarga hurmat bilan qarash qanchalik muhimligidan xabardor, albatta. Bu yerda har qadamda huquq bilan bog'liq turfa xil vaziyatlarga duch kelish mumkin. Shuni inobatga olib, tahririyatimiz "Huquqiy maslahatxona" ruknini ochishni lozim topdi. Unda gazetxonlarimizdan kelgan savollarga huquqshunoslarning javoblari berib boriladi. Marhamat, aziz mushtariy, bizga savollar yo'llang.

Bugungi savollarga advokatura xodimi, yurtdoshimiz Marvarid O'lmasova javob beradi. Agar M. O'lmasova bilan bog'lanmoqchi bo'lsangiz, quyidagi telefon raqamini tering: +1(347)2004887



3. Yoshim 24da. Grin Kard sohibiman. Yaqinda uylanish niyatim bor. Bo'lajak umr yo'ldoshim O'zbekistonda yashaydi. To'ydan keyin u tezroq AQShga kelish huquqini olishi uchun nima qilishimiz kerak?

Akbar

Javob: Umr yo'ldoshingiz yo mehmon yoki student sifatida viza olib, AQShga kelisi mumkin. Afsuski, u doimiy yashovchining xotini sifatida mamlakatga kirish huquqini olmaydi. U Visa numbergaga ega bo'lishi kerak.

6. Men AQSh fuqarosi-man. Qallig'im O'zbekistonda yashamoqda. Men uni mamlakatga taklif eta olamanmi?

Ikrom

Javob: Ha, taklif eta olasiz. Qalliq vizasiga taqdimnoma yo'llaysiz. Jarajon bir yilcha vaqt egallaydi.

Immigratsiya xizmati iltimosingizni qondirgan holda, qallig'ingiz mamlakatga "AQSh fuqarosi qallig'i" maqomi bilan kiradi. Viza 3 oyga beriladi. Bu muddat ichida nikohlaringni rasmiylashtirib, Grin Kardga hujjat topshirishlaring kerak.

Toshpo'lat RAHMATULLA tayyorladi.

1. Men AQShda mehmon sifatida kirib kelganman. Aeroportda Immigratsiya xizmati xodimi mamlakatda 6 oy qolishimga ruxsat beruvchi "Oq karta" bergan edi. Uning muddatini uzaytirishim mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, nima qilishim kerak?

Akmal

Javob: "Oq karta" muddatini uzaytirish mumkin. Uning mud-

dati tugashidan 45 kun avval Immigratsiya xizmatiga murojaat etish lozim. Buning uchun I-539 Application to Extend/ Change Nonimmigrant Status formasi to'ldiriladi va pasportingiz, vizangiz hamda "Oq karta" nusxalari ilova qilinadi. AQShda bo'lgan vaqtin-gizda o'zingizning moddiy jihatdan ta'minlangan ekanligingizni ko'rsata olishingiz Immigratsiya xizmati uchun o'ta muhimdir.

2. Men AQShga Grin Kard bo'yicha kelganman. O'zbekistonda xotinim va o'g'lim qolgan. Xotinim bilan fuqarolik nikohidamiz. Agar nikohimizni rasmiylashtirsak, xotinim bilan o'g'limni bu yerga olib kelsam bo'ladimi?

Davron

Javob: Afsuski, bu jarayon yengil kechmaydi. Immigratsiya qonunchiligi bo'yicha AQSh fuqarosi o'z oilasini birlashtirish uchun ustunlikka ega. Siz, albatta, talabnoma

yuborishingiz mumkin. Lekin Visa number olish 2-3 yil cho'zilishi mumkin. Uni olganingizdan so'ng ishingiz ko'rib chiqiladi. Immigratsiya xizmatining ma'lumotlariga qaraganda, bu yili 2007 yilda yuborilgan talabnomalar ko'rib chiqiladi. Mabodo oilangiz AQShda yashayotgan bo'lsa (masalan, mehmon sifatida kirib olib), u holda oilangizni birlashtirish maqsadida talabnoma berishingiz mumkin. Ishingiz 9 oydan bir yarim yil vaqt mobaynida ko'rib chiqiladi.

4. Men bu yurtida nolegal-man. Sevgan qizim - AQSh fuqarosi. Uylanganimizdan so'ngra men Grin Kard olishim mumkinmi?

Aslam

Javob: Albatta. Umr yo'ldo-

shingiz I-130 Petition for Alien Relative talabnomasini yuborishi kerak. Siz nikohingiz soxta emasligini isbotlovchi hujjatlarni Imkoni boricha ko'proq taqdim etishingiz zarur. Ishingiz 6-8 oy ichida ko'rib chiqiladi.

5. Men va xotinim AQShda nolegal yashab kelayapmiz. Yaqinda o'g'il ko'rdik.

Uning ushbu mamlakat fuqarosi maqomi bizga ta'sir qiladimi, ya'ni bizning legal-

lashish imkoniyatimiz bormi?

Botir va Nargiza

Javob: Farzandingiz 21 yoshga to'lmaguncha legallashish imkoniga ega emassiz.

7. Men - AQSh fuqarosi. Ota-onamga Grin Kard uchun hujjat yuborsam bo'ladimi?

Jamol

Javob: Ha. Siz Immigratsiya xizmatiga I-130 Petition for Alien Relative talabnomasini yo'llashingiz lozim. Bir yil mobaynida ota-onangiz Grin Card olishadi.



Хурматли ватандошлар !

Сизга маълумки, АҚШда солиқлар масаласи жуда ҳам муҳим ва ҳар бир фуқаро даромад солиғини ўз вақтида қонунларга мувофиқ равишда тўлаши шарт.

Ватандошларимизга солиқларни тайёрлашда ёрдам бериш мақсадида Вашингтонда АҚШ қонунларига кўра даромад солиғи бўйича ўзбек мутахассислари (IRS) ишни бошлади.



Сизни қизиқтирган барча саволларга қуйидаги рақамлар орқали мурожаат қилишингиз мумкин.

Зокир Алиев.

МВА.ЕА - 703 459 82 34

E-mail: zakiraliyev@yahoo.com

АҚШ Солиқлар Бош

Бошқармасининг имтиёзли лицензиясига эга солиқ мутахассиси.

Фазилат Мамурова

МРА -703 786 72 01

E-mail: fazilat84@yahoo.com

Молиявий хизматлар

O'ZBEKISTONNING TUG'ILGANLIK TO'G'RISIDAGI GUVOHNOMASINI QANDAY OLISH MUMKIN?

Savol: Farzandimiz AQShda tug'ildi. Yaqinda O'zbekistonga bormoqchimiz. Farzandimizga O'zbekiston Respublikasining tug'ilganlik guvohnomasini olishimiz kerakmi? Uni AQShdan turib olish tartibi qanday?

Javob: "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga to'g'risida" g'iqonun 13-moddasiga ko'ra, tug'ilgan paytida ota-onasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bola, O'zbekiston Respublikasi hududida yoxud O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. Demak, O'zbekiston Respublikasida ikki fuqarolikka yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustavining 44, 45-moddalariga binoan, konsul O'zbekiston Respublikasining havo, dengiz, daryo kemasida biror shaxsning tug'ilganligi yoki vafot etganligi to'g'risida ma'lumot olgach, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tug'ilganlik yoki vafot etganlik to'g'risidagi holatni ro'yxatga oladi hamda xorijiy davlatlarda tug'ilgan

AIRPORT SERVICES IN NEW YORK



ТОШКЕНТГА АВИАЧИПТА СОТАМИЗ.

Аэропортда кутиб олиб, NYC аэропортидан 300 милгача масофа бўлган бошқа штатларга олиб бориб қўйиш ёки олиб келиш хизматини таклиф этамиз. Бир аэропортдан бошқа аэропортга, бир терминалдан бошқа терминалга кузатиб қўйиш ва маҳаллий рейсларга авиачипта сотиб олишга кўмаклашамиз.

AIRLINE TICKETS TO TASHKENT, UZBEKISTAN!

We meet you/your guests at the JFK, LGA and Newark Airports and/or give ride to/from many States up to 300 ml in range from NYC Airports. Accompany you/your guests from Airport to Airport, from Terminal to Terminal and help to purchase an airline ticket to local flights.

Asqar 718-354-5000, 718-570-7007
Leo Avia Express Email: flytotas@gmail.com

DIGITAL WORLD

Tüm Cep Telefonu Markalarını Bulabileceğiniz Tek Adres

www.dworldshop.com

UNLOCKED



IPHONE



SAMSUNG



BLACKBERRY



HTC

UNLOCKED



LG



MOTOROLA



SONY ERICSSON



NOKIA

UNLOCKED



IPAD



MOTOROLA



BLACKBERRY



SAMSUNG

Size Özel İndirimlerle Tüm Elektronik Ürünler Ve Daha Fazlası
246th Avenue Suit #600 (28 th Street) New York, NY 10001
☎ (212) 481 32 86



Regional Agent: Javlon
Phone: 267-575-0000,
Email: javlonpa@atlanticexportinc.com
<http://www.atlantic.uz>
www.atlanticexportinc.com



KASHKAR CAFE

1141 Brighton Beach Ave, (between Brighton 14th st. and Brighton 15th st.) Brooklyn NY 11235 USA.
Phone: 1 718-743-3832

www.kashkarcafe.com

Email: info@kashkarcafe.com

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining farzandlariga tug'ilganlik guvohnomasini beradi.

Demak, AQSh hududida tug'ilgan farzandingizga tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani O'zbekiston Respublikasining AQShda joylashgan konsullik muassasasi beradi. Tug'ilganlik guvohnomasini O'zbekistonga safar qilishdan oldin olishingiz lozim. Konsullik farzandingizga tug'ilganlik guvohnomasini berish bilan birgalikda ota-onalardan birining pasportiga farzandning fotosurati yopishtirilgan ma'lumotnomani ham yozib beradi. Tug'ilganlik guvohnomasi va ota-onalardan birining pasportidagi bola haqidagi ma'lumot bilan farzandingizni O'zbekistonga bemaol olib borishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining AQShdagi elchixonasida belgilangan tartibga ko'ra (www.uzbekistan.org), farzandingizga tug'ilganlik gu-

vohnomasini olish uchun ota-ona yoki ulardan birining nomidan shu mazmunda ariza yozib, ota-onaning pasportlari, ota-onaning nikoh guvohnomasi nusxasi, bola tug'ilganligi to'g'risida AQShdan olingan guvohnomaning asl nusxasi (rus yoki o'zbek tilidagi rasmiy tarjimasini bilan), bolaning pasport o'lchamidagi ikki dona fotosuratini konsullik muassasasiga topshirishingiz lozim.

Tug'ilganlik guvohnomasini olish uchun pul to'lanmadi. "O'zbekiston Respublikasining konsullik yig'implari tarifi" haqidagi hujjatning 31-moddasiga muvofiq, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma uchun konsullik yig'imi olinmaydi.

Vashingtonda joylashgan O'zbekiston elchixonasi quyidagi shtatlarda joylashgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga konsullik xizmatlarini ko'rsatadi:

Alabama, Arkanzas, Kolarado, Delover, Florida, Jorjiya, Kentuki, Luiziana, Merilend, Missisipi, Shimoliy Karolina, Janubiy Karolina, Oklahoma, Tennesi, Texas, Virjiniya, G'arbiy Virjiniya, Vashington shahri.

Qolgan shtatdagilar Nyu Yorkda joylashgan konsullikka (www.uzbekconsulny.org) murojaat etishlari lozim. Hujjatlarni pochta orqali jo'natishda, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani sizga jo'natishlari uchun oldindan xizmat haqi to'langan FedEx yoki USPS pochta konvertini qo'shib jo'natishni unutmang. Hujjatlarni pochta orqali yuborishdan oldin elchixona yoki konsullik bilan bog'lanib, yana bir bor ularning maslahatini olishingizni tavsiya qilamiz.

Dilorom ABDULLAYEVA tayyorladi.

KJR & Sons Inc

Address: 6900 Roustein Avenue UNIT # 6-7 North Bergen, New Jersey 07047
Phone: (201) 453-1220 (201) 430-8041
Fax: (201) 453-1223
Email: kjr@kjrsons.com
Web: www.kjrsons.com

KJR & SONS Inc. is a wholesale distributor of brand name health & beauty aids and general merchandise KJR & SONS serves wholesalers, grocery & c-stores, pharmacies and jobbers.

KJR has been in business since 2005, providing quick, reliable service for the past 6 years.

Teatr san'ati tarixida onalar timsoliga aylangan, minglab tomoshabinlarning mehr-muhabbatini qozongan va xalq e'zoziga sazovor bo'lgan aktrisalar bor. Lutfixonim aya timsolidagi ona mehribon, jaydari, sodda, Zaynab Sadrieva timsolidagi ona qattiqqo'l, cho'rtesar, Manzura aya timsolidagi ona o'ta halim, ko'ngilchan, kuyunchak, samimiy, Maryam Yoqubova timsolidagi ona biroz kibrli, maqtanishni yoqtiradigan, Muhabbat aya timsolidagi ona jasur, mag'rur. Xullas, nima bo'lgandayam bularning barida o'zbek onalarining xarakteri, ruhiyati, kechmishlari, orzu-armonlari o'z ifodasini topgan. Ular bir-birini takrorlamaydi. Bugun onalar timsolini yaratayotgan el ardog'idagi aktrisalar O'zbekiston xalq artistlari To'ti Yusupova, Dilbar Ikromova, Rixsi Ibrohimovalarning rolini ham yuqoridagi san'atkorlar qatoriga qo'shishga haqlimiz.

Sevimli san'atkorimiz, O'zbek Milliy akademik drama teatrining onaxoniga aylangan O'zbekiston xalq artisti Rixsixonim Ibrohimova bilan bo'lgan dildan suhbatimiz onalar timsolini yaratish mavzusidan boshlandi.

- **Rixsi opa, o'zingizga ma'lumki, teatr va kino san'atida onalar timsolini yaratgan ko'pgina aktrisalar o'tishgan. Deylik, Zaynab Sadrieva, Sora Eshonto'raeva, Lutfixonim Sarimsoqova, Manzura aya. Ayting-chi, ular yaratgan ona obrazi ichida sizning ruhiyatingizga yaqini qaysi, ularning qay jihatlari-dan o'rnak olsa arziydi?**

- Sahnada yaratilgan onalar qiyofasi, xarakteri albatta, turfa xil ranglarda namoyon bo'lgan. Birining xarakteri yumshoq, biriniki qattiqqo'l, biri xayolparast, biri xushchaqchaq. Mening ruhiyatimga yaqini, oddiy til bilan aytganda, jaydari, sodda, mehribon va g'amxo'r, odamlarga faqat yaxshilik sog'inib yashaydigan onalar obrazidir. Lutfixonim aya, Manzura aya, qolaversa, o'zimning onamning xarakterlari juda-juda menga yaqin. Sahnada, ekranda qancha-qancha rollar o'ynadim. Lekin mening yuragimga eng yaqini O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari"dagi Ona obrazi bo'ldi. Qayoqqa borsam hamma shu rolimga gapiradi. Balki muallifning shu obrazga katta qalb, katta mehr bilan yondashib, onalarning barcha fazilatlarini mujassam eta olgani uchundir. Balki men ham bu rolga butun mehrim bilan yondoshganim uchundir. Nega bu obraz barchaga birdek yoqadi?! Negaki, undan haqiqiy o'zbek onasining fazilatlarini, ruhiyati, ibosi, mehribon va mushfiqligi, bag'rikengligi, iztiroblari, kuyunchakligi mujassamlashgan.

Bu rolni o'ynamasdan oldin, teatr sahnasida juda ko'plab rollarni ijro etganman. Buni muxlislar yaxshi bilishadi. Bir qancha asarlarda bosh qahramon obrazlarida o'ynaganman. Masalan, Guli, Jamila, Feruza va boshqalar. Yoshim ulg'aygan sayin menga onalar rolini bera boshlashdi. "Kecha va kunduz"dagi Qurbonbibi ham keyingi ijodimda dunyoga kelgan rolimdir.

- **Rixsi opa, siz buyuk aktyorlar Shukur Burhon, Olim Xo'jaev, Sora Eshonto'raeva kabi zabardast san'atkorlar**

bilan bir sahnada yonmayon ishlash baxtiga muyassar bo'lgansiz. Aytingchi, shunday ulug' san'atkorlar bilan bir sahnada o'ynash og'ir kechmaganmi? Demoqchimanki, ularning salobati bosib, o'z rolingizni ochib berolmagan pay-

ONA BO'LISH QIYIN

O'zbekiston xalq artisti Rixsi Ibrohimova huzurida



tingiz ham bo'lganmi?

- Xohlaysizmi, yo'qmi ilk bora sahnaga chiqqaningizda yurakda hayajon bo'ladi. Ayniqsa, yoningizda buyuk san'atkorlar turganda. Ularning darajasiga yetkazib o'ynashning o'zi bo'lmasdi. Menga o'sha paytdayam bosh qahramon rollarini topshirishgandi. Biz yoshlar ular bilan salom-alik qilganda ham juda hayajonlanar edik. Biz uchun ular go'yo osmondagi oy va quyosh edi. Yutug'imiz shu ediki, ular bizni boshimizni silab rol ustida ishlatishar, yo'l-yo'riq, maslahat berishar, o'sha rolni pishirib olmagunimizcha ishdan to'xtatishmasdi. Rol ustida oylab-yillab ishlar edik. Yelkamizda juda katta yuk, mas'uliyat turardi. Ular ijroni qoyil qilgandan keyin biz ham jilla bo'lmasa berilgan vazifani, ya'ni yukni torta bilishimiz kerak edi. Hozirgi yoshlarda andisha deymizmi, cho'chish yo salobat bosishmi, sezilmaydi. Hammalari emin-erkin harakat qilishadi.

- **Balki sahnada erkinlik kerakdir?**

- Sahnada albatta erkinlik kerak.

Gapning ochig'i, bugun yuragimizni o'ynatib yuboradigan toshi og'ir rollar deyarli yo'q. Balki shuning uchun yoshlarimiz biroz erkinroqdir?! Ammo, mumtoz asarlar sahnaga qo'yilayotgan bo'lsa, yoshlarimiz, albatta, biz kattalardan maslahat so'rashadi. U davr bilan hozirgi kunni taqqoslab bo'lmaydi. Sora opa, Shukur aka, Zaynab opa, Obid Jalilov, Mariya Kuznetsova, Amin Turdievlarning oldida tilimiz aylanmay qolardi. Amin Turdiev har bitta so'zga nihoyatda katta e'tibor berardilar. Institutni rus tilida bitirgan aktrisalarimiz ularni ko'rganda hayajonga tushishardi.

- **Qaysi dramaturg, qaysi rejissyor bilan ishlash siz uchun maroqli?**

- Aleksandr Ginzburg, To'la aka, Rustam Hamidov, Bahodir

"kassabop" asar ham kerakligi, odamlar aynan shunaqa tomoshani yoqtirayotganini aytadilar. Bu gapda haqiqat bor. Balki shunaqa tomoshalar ham kerakdir. Ammo bunday "asar"lar ko'payib ketaversa, qo'polroq qilib aytganda, ot aravani emas, arava otni tortadigan bo'lib qolmasmikan? Bunday "arzon", "hazmi oson" tomoshalar teatr obro'siga putur yetkazmaydimi? Qolaversa bu - tomoshabin ma'naviyatiga salbiy ta'sir qilmaydimi?

- To'g'ri, qo'yilayotgan asarlarimiz biroz yengil, hazmi oson. Biz ham katta asarlarga da'vo qilayotganimiz yo'q. Biroq, ko'pchilik asarlarda xayosiz, beparda xatti-harakatlar, so'zlar yo'q. Turmush tashvishlaridan xorigan tomoshabinga nima kerak? O'zgina xazil-mutoyiba, komediya janridagi asarlar zarar qilmaydi.

- **Insondagi qaysi fazilatni ulug'laysiz? Qaysi qusurni yomon ko'rasiz?**

- Hayotda befarq, loqayd odamlar eng qo'rqinchli odamlardir. Shundaylarni juda yomon ko'raman.

- **San'atkor sifatida ijodiy tamoyilingizni bir og'iz so'z bilan ifodalasangiz?**

- Tinib-tinchimaslik va atrofdagilarga befarq bo'lmaslik.

- **Repetitsiya paytida, goho tomosha davom etayotganda ham sahnada turli kutilmagan holatlar, kulgili vaziyatlar bo'lib qolishi mumkin. Sizda ham shunday bo'lganmi?**

- Kutilmagan holatlar, kulgili vaziyatlar ko'p bo'ladi. Qay birini aytay? "Yo'lchi yulduz" spektaklida Gulasal degan rol bor edi. Sahnada "o'lib yotibman". Bir payt bir talay askarlar kirib kelishadi. Biri non, yana bir nimanidir talashib oladi. Shunda bir askar qo'limni shunaqangi g'archillatib bosib ketdi-ki, "o'lib yotgan" odam birdan "voy" deb baqirib yubordim. Men ikkinchi marta "qaytadan o'ldim". Zalda shunaqangi kulgi ko'tarildi-ki...

- **Rixsi opa, san'atkor bo'lish uchun inson hayotida nimalardandir voz kechishiga to'g'ri keladi. Yo'qotganingiz topganingizdan ko'pmi yo kam?**

- Albatta yo'qotishlar ham bo'ladi. Lekin topganim ko'proq. Minglab tomoshabinlar, muxlislar, xalq olqishi. Davlatimiz tomonidan mehnatimning qadr topgani (1979 yilda O'zbekiston xalq artisti, 1997 yilda "Mehnat shuhrati" ordeni). Bularning hammasi hayotda topgan-tutganlarim. Men o'zimni baxtli san'atkorlardan deb bilaman.

MOHINBONU suhbatlashdi.



Yaqinda AQSh Kongressiga qilgan xitobida, AQSh prezidenti Barak Obama chet ellik talabalarni o'qishlari bitgandan so'ng o'z vatanlariga qaytarib yuborish haqidagi siyosatni notog'ri deya baholadi:

"Bugun o'quv dargohlarimizda ilmlarini oshirayotgan Amerikalik bo'lmagan yuz minglab talabalar bor. Ularning ayrimlari hujjatsiz ishchilarning farzandlaridir, ular ota-onalarining qilgan ishlariga javobgar emaslar. Ular Amerikalik bo'lib voyaga yetgan, bizning bayrog'imizga sodiqlik ko'rsatadi, shunday bo'lsa-da, ular har kuni deportatsiya qilinish xavfi ostida yashashadi. Boshqalar esa kollej va universitetlarimizda o'qish ucun xorijdan kelishadi. Lekin oliy darajali diplomlarini qo'lga kiritishlari bilan, ularni bizga qarshi raqobat qilishlari uchun uylariga qaytarib yuboramiz. Bu mantiqsizlik".

AQShda noqonuniy yashab va o'sib kelayotgan yosh avlodni fuqarolikka qabul qilish to'g'risidagi muvaffaqiyatsiz chiqqan DREAM qonun loyihasi mamlakatda anchadan beri turli bahslarga sabab bo'layotgan edi. Obamaning Kongressga qilgan murojaatida yana shu mavzu ko'tarilib, bu safar xalqaro talabalar masalasining ham noqonuniy immigrantlar bilan bir qatorda tilga olinishi yangilik bo'ldi. Tahlilchilar fikriga ko'ra, bilimli va iqtidorli chet ellik talabalarga AQShda ishlash va yashash uchun qolish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi kelgusi qonun loyihalarida noqonuniy immigrantlar masalasi bilan bir qatorda ko'rib chiqilishi

OBAMA XALQARO TALABALARNING AQSHDA QOLISHINI ISTAYDIMI?

mumkin. Obama, bu borada boshlagan ishlarimizni davom ettiramiz, dedi:

"Men, birdaniga va hamma uchun, noqonuniy immigratsiya masalasini hal qilish lozimligiga qat'iy ishonaman. Men panalarda yashab kelayotgan millionlab hujjatsiz ishchilar masalasini hal qilish, qonunlarimizni amaliyotga tatbiq etish va chegaralarimizni himoya qilish uchun Respublikachi va Demokratlar bilan birga ishlashga tayyorman. Bilaman, bu munozaraning yechimi qiyin. Bilaman, u vaqt o'ldi. Lekin bugun, kelinglar, shu masalaga yechim topish uchun kelishib olaylik. Kelinglar, yangi biznes ochib mamlakatimizning boyishiga hissa qo'shayotgan, ilmiy tadqiqot laboratoriyalarimizda ishlayotgan iqtidorli, mas'uliyatli yosh insonlarni haydab chiqarishni bas qilaylik".

Mamlakatda millionlab noqonuniy muhojirlar bor ekan, ular masalasi biryoqli bo'lmaguncha, ushbu mavzu hali-veri barham topmaydi. Bu haqdagi kelgusi qonun loyihalarida xalqaro talabalar masalasi ham ko'tarib chiqilsa, ajab emas. Chunki prezident o'z nutqida shu mavzuga ham alohida to'xtalib o'tdi.

AQShdagi xalqaro talabalar orasida minglab o'zbekistonliklar ham bor. Ularning ko'pchiligi, agar imkoniyatlar yanada kengaysa, o'qishdan so'ng qolib shu yerda ishlashni va yashashni xohlaydi. Ular bu borada mamlakat rahbari Obamaning fikrini qo'llab quvvatlashlari tabiiy.

Odilbek Amerikaning nufuzli biznes maktablaridan birini bitirib, hozirda amaliyot o'tamoqda. Uning aytishicha, Amerikaga kelishni faqat o'zbekistonliklar emas, hamma xalq vakillari xohlaydi. Istalgan

mamlakatda AQSh elchixonasiga borsangiz, doim odamlar navbatda turganini ko'rasiz, deydi u.

"Iqtisodda eng qimmatli resurslardan biri bu xalq hisoblanadi, - deydi Odilbek. - AQSh hukumati mana shu resursning qadrini yaxshi biladi. Shuning uchun yaxshi kadrlarni ushlab qolish payida bo'ladi. Obamaning aytgan gaplaridan shuni tushunish mumkin. Shuning uchun ham Amerikaning immigratsiya bo'yicha qonunlari boshqa davlatlarga qaraganda ancha yumshoq. Cheklovlarni yanada yumshatishga harakat qilishyapti".

Ulug'bek Qosimov AQShga o'qish niyati bilan kelgan yana bir vatandoshimiz. O'n yildan oshibdiki, hanuz shu yerda. Hozir o'z biznesiga ega, taksi kompaniyasining rahbari. Oltita odamni ish bilan ta'minlagan. Har bir amerikalik kabi soliq to'lab, mamlakat g'aznasining boyishiga hissa qo'shmoqda.

"Magistratura va doktorlik darajalariga ega bo'lgan xalqaro talabalarga birinchi navbatda "Grin Karta" berish kerak, - deydi

ISTAYDIMI?

Ulug'bek. - Chunki mamlakatning rivojlanishida professional kadrlar muhim o'rin tutadi. Agar ular mamlakatdan chiqib ketsa, davlat faqat yutqazadi. Qonunlarni yumshatib, xalqaro talabalarga qolish va yashash uchun imkoniyatlarni yaxshilab berishdan Amerika faqat foyda ko'radi. Shuning uchun men Obamaning bu boradagi fikrlarini to'la qo'llab quvvatlayman".

Siz bu haqda nima deb o'ylaysiz, aziz vatandosh? AQShda o'qiyotgan xalqaro talabalarga bu yerda qolib ko'proq ishlash va yashash uchun imkoniyatlar yaratilishi kerakmi? Nima uchun shunday bo'lishi kerak, deb hisoblaysiz? AQSh bundan qanday manfaat topadi? Sizchi? Shu haqdagi qimmatli fikr-mulohazalaringizni elektron pochta manzilimiz orqali bizga yo'llasangiz, kelgusi sonlarimizda ularni shu sahifalarda boshqa vatandoshlaringiz ham o'qishlari uchun chop etamiz.

Behzod MAMADIYEV

"LIVING WAY" SIZNI CHORLAYDI!



Xristofor Kolumb Mirzo Ulug'bekning yulduzlar xaritasi orqali Amerikani kashf etdi. Biz esa Amerikaga endi kelganlar uchun "Living Way"ga tashrif buyurishlarini taklif qilamiz.

"Living Way" bolalar va kattalar uchun ingliz tilini o'rganadigan bepul maktabdir. Bu maktab asosan Markaziy Osiyodan Amerikaga kelgan insonlar uchun maxsus ochilgandir.

Mashg'ulotlarni amerikalik o'qituvchilar olib borishadi. "Living Way" da olgan bilimlaringiz Sizni nafaqat Amerika hayotiga moslashtiradi, balki o'z turmush tarzishingizni to'la o'zgartirishga imkoniyat yaratadi. O'zingizga va yaqinlaringizga eng to'g'ri yo'lni ko'rsatadi!

Murojaat uchun manzil: 2487 Coney Island Avenue, Brooklyn, NY 11223
Tel. 718-781-6030

Immigration Attorney
2610 E. 18th st, Suite 5. Brooklyn. NY. 11235
Phone: 718.303.8990



USMON NOSIR (1912-1944)

Usmon Nosir 1912-yil 13-noyabrda Namangan viloyatida tug'ilgan. Moskvadagi Kinematografiya institutida (1929—30) va Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining til va adabiyot fakultetida bir muncha muddat tahsil olgan (1933—34). «Quyosh bilan suhbat», «Safarbar satrlar» (1932), «Traktorobod» (1934), «Yurak» (1935), «Mehrim» (1936) kabi

she'riy to'plamlari, «Norbo'ta» va «Naxshon» (1934) dostonlari nashr etilgan. «Atlas» (1935) pyesasi o'z vaqtida xavaskorlar teatri sahnasida qo'yilgan. A. S. Pushkinning «Boqchasaroy fontani», M. Lermontovning «Demon» («Iblis») dostonlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1937-yil 13-iyulda «xalq dushmani» sifatida hibsga olinib, dastlab Magadan, so'ngra Kemerovo viloyatlaridagi qamoqxonalarga yuborilgan va 1944-yil 9-martda o'sha yerda vafot etgan.



USMON NOSIR (1912-1944)

Usmon Nosir was born on November 13, 1912 in Namangan region. He studied at the Institute of Cinematography in Moscow (1929-1930) and Samarkand State University named after Alisher Navoi (1933-1934). His books include Conversation With The Sun, Mobilized Lines, Traktorobod, Heart, Mercy, Norbuta and Naxshon. His play Atlas was played at a little theater. He translated The Fountain of Bakhchisarai by Pushkin, Demon by Lermontov, from Russian into Uzbek. On July 13, 1937, accused of "people's enemy", he was arrested and was first sent to Magadan, and later he was sent to Kemerovo region, where he died on March 9, 1944.

MONOLOG

Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o'pmagan, kim tishlamagan?
Darding yoyday tilib ko'ksidan,
Kim qalbida qonlar to'kmagan?

Seni yaxshi bilaman, go'zal
Petrarkani o'qiganim bor,
Buyuk Rimning Sappfosi azal
Xayolimni oshiqday tortar.

Bilamanki, Tasso bechora
Rohat ko'rmay o'tgan bir umr.
Ey, makkora qiz, Leonora,
Nomi qora bilan yozilgur!..

Balki, guldani yaralgan pari,
Tosh ko'ngilli Biatrichi -
"Gadosan!" deb qochmasa nari
Dante baxtli bo'lardi picha?!

Balki Hamlet oydin tunlarda
Ofeliyani erkalatardi,
Balki uzun sochini silab
Azongacha ertak aytardi.

Agar xiyonatni bilmasa,
Ezmasa fojia yuragin!
Yo'q, yo'q, shoir!
Gar shunday bo'lsa
Shekspirning yo'qdi keragi!

Dezdemon, gunohsiz dilbar,
Jigar qonlaringni ichgan kim?

Bilaman - Otello, bilaman...
Otello haqlimi?.. Shoir jim!..

Jim!.. Ufqdan botar quyoshni
Shart kesilgan boshga o'xshatdim.
Parcha-parcha kuygan shafaqlar
Tirqiragan qonni eslatdi!

Qanday qo'rqinch! Qanday qabohat!
Mumkin emas hech qiynalmasdan!
Aqlidan ozganmi muhabbat?
Mumkin emas, qarshi turmasdan!

Mumkin emas, ey oliy janob,
Necha yurakni aylab xarob,
Shohona toj kiygan muhabbat,
Mumkin emas! Qanday qabohat.

Ki, odamning o'ziginamas,
Hissini ham xarob qilsa davr!
Qiynalaman!.. Yuragimda hovur -
Bu qarshilik! Yon! Gina emas.
Bu qarshilik! Ko'ring tarixni.

Parvonadek qanoti kuygan.
Bu qarshilik! Ko'ring tarixni -
Umr tepasida musht tuygan...
Qiynalaman vijdon bilan man -
Mumkin emas qarshi turmasdan
O'z zimmamga katta ish oldim;
Ehtimolki, tamom qilmasdan -
Umrimga tugar. Ammo bo'lmaydi
(Ko'nglim o'rniga hech tushmaydi!)
Senga qarshi bosh ko'tarmasdan,
Asrlarni yig'latgan sevgi!

YANA SHE'RIMGA (Sonet)

She'rim! Yana o'zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda.

Yuragimning dardi - naqshisan,
Qilolmayman seni hech kanda!
O't bo'lurmi ishqiy yo'q tanda?
Dardimsanki, she'rim yaxshisan.

Sen orada ko'prik bo'lding-da,
Geyne bilan o'rtoq tutindim.
Lermontovdan ko'mak o'tindim.

Butun umrim sening bo'yingda.
Saharda qon tupursam, mayli.
Men - Majnunman, she'rim, sen - Layli!

YURAK

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zingga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.

Senga tor keldi bu ko'krak,
Sevinching toshdi qirg'oqdan,
Tilim charchar, ajab, gohi
Seni tarjima qilmoqdan.

Sen, ey sen - o'ynoqi dilbar,
Zafardan izla yoringni.
To'lib qayna, toshib o'yna,
Tirikman, kuyla boringni!

Itoat et! Agar sendan
Vatan rozi emas bo'lsa,
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli, tamom o'lsam!

MONOLOGUE

Love! Who didn't bite and kiss
From your tasteful sweetest tongue?
Who did not pour blood of chest,
Cutting heart with bow along?

I know you well, a girl attractive,
From Petrarka came a story.
In my dream reforms so active -
Sampho of Great Rome is my worry.

I have known that helpless Tasso
All long life has seen no pleasure.
And cunning, sly Leonora also, -
May this name be blackish major.

Created from the bloom - the angel -
Beatrice is stonehearted.
Dante would be happy little,
If she didn't make be parted.

At moonlit nights Hamlet perhaps,
Spoiled his Ophelia, an angel.
Maybe rubbing her long hairs
Could till early dawn tell fable.

If one doesn't know what's treason,
Misfortune never crushes his soul.
No, no, o poet! What a reason,
Where's hidden Shakespeare's role?

Desdemona - charming sinless,
Who have drunk your liver blood?
I'm aware, Othello has,

AGAIN TO MY VERSE (Sonnet)

My verse! Again yourself you're kind!
Blooms feel mean when you're in the park.
My dear life, that's what you find,
And live in soul as being spark.

You are a pattern - my heart's sorrow,
I can't desist to write, you're hobby,
Will flame be in the loveless body?
My verse is well as illness follows.

You were a bridge to unite always,
With Heine - faster - friends I made
And asked Lermontov for aid.

All life long being at your service,
Well, at dawn I spit blood - failure,
I am Mejnun, and you're my Leila.

HEART

Heart, you are my splendid song,
Accompanied by flute, my tongue.
You kept away the face of Moon,
Heart, be always the greatest tune.

My chest was small for you and then
A wild delight too overran.
So strange sometimes as making fashion
My tongue is tired of translation.

You are my flirtatious darling,
Boil in full, dance on the far wing,
Find your love to entertain,
I'm alive, you sing and gain.

Obey! But mercies cannot wait, if
Has no consent with you land-native.
Burst! Then turn to lightning ever,
Burst! All right, I die forever!

Is he right?.. The poet is shut!

Keep silence! I compare head
That is cut like sun in set.
Blazed pieces in horizon
Mentioned flowing blood that's frozen.

What a baseness, what a horror?
It's acceptable to trouble.
Love is maddened from the sorrow,
Is it impossible to struggle?

It's impossible, hey grown,
Destroying many splendid hearts,
Love always wears a kingly crown,
How meanness also standing starts?

Not only a man himself, but sense
Is also ruined by the age.
I take pains! In heart - intense,
It's resistance! Not offence!
See history and it avenges!

Like a butterfly on fire,
It's resistance! See the ancient
That binds above the life its fist:
And how can I be ever patient,
But I feel torture in my chest.
So I took a deal - important,
Perhaps my life will come to end
Before I finish job like torment.
(My soul will never be amended)
Making wept all ages - your fault,
Love - against you - I revolt!

Translated by Azam Abidov

GASHTAKDA GAP KO'P

O'ZBEKNING FE'LI

Xalqimizning faxrlanishimizga va boshqalarga o'rnak bo'lishga arziydigan ma'naviy qadriyatlarimiz anchagina. Ular orasida Toshkent va Farg'ona vodiysi viloyatlarida "gap", Samarqand Buxoroda "gash-tak" deb ataladigan qadriyat alohida o'rin egallaydi.

Gashtakning tarixi uzoq-uzoqlarga borib taqaldi. O'tmishda qishning uzun tunlarini mazmunli o'tishini ta'minlash ilinjida mahalladoshlar, qishloqdoshlar yoki ma'lum bir kasb egalari to'planib, ko'ngilochar suhbatlar tashkil etishgan. Gashtak tabiiy zarurat sifatida o'zaro oilaviy, kasbiy, avlodiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu sababli gashtakni faqat ovqatlanish ilinjida to'planmoq deb tushunish haqiqatga unchalik yaqin emas.

Tengdoshlar, ma'naviy dunyosi bir-biriga yaqin, gap-so'zlari hamohang jo'ralar navbati bilan birlarining uylarida yoki mahalladagi maxsus joyda to'planishlari odat tusiga aylangan. O'tirish davomida suhbat mavzusi turli masalalarga borib taqalgan, o'qimishli kishilar she'ru g'azallar aytib, ibratli hikoyatlarini davraning barcha ishtirokchilariga eshitarli qilib o'qib berishgan. Ayrim davralarda bedilxonlik, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, jomiyxonliklar tashkil etilgan.



Xalqimizning "inson yo mehmonxona yoki darsxona changini yutishi kerak", degan dono so'zlarida juda katta ma'no bor. Savodli odamning saviyasi yuqori bo'lishini ota-bobolarimiz azaldan bilgan. Agar biror sabab bilan yosh yigit yetarli savod ololmagan bo'lsa, unda u kattalarning o'tirishlarida qatnashib, xizmat qilib, o'zidan oldin birikki ko'lak yirtganlar suhbatini tinglab, katta hayot maktabini o'tagan hisoblanadi. Gashtakka shu nuqtai nazardan qarasa, uning beqiyos tarbiyaviy ahamiyatini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

Keyingi paytlarda oilaviy gashtaklar, dugonalar, sinfdoshlar, kasbdoshlar va ayollar gashtagi tashkil etiladigan bo'ldi. Ularning

ayrimlarini "pulli gashtak" deb atashmoqda. Chunki ishtirokchilar ma'lum miqdorda pul to'plab navbati bilan bir kishiga berishadi. Aniq maqsadi bo'lmagan, uzoqni ko'zlamagan gashtakning ma'lum muddat o'tmasdan tarqalib ketish hollari ko'p uchraydi. Endi, aziz gazetxon, deyarli 30 yil mobaynida davom etib kelayotgan gashtak haqida qisqacha so'z yuritmoqchiman. Ha, o'zim ishtirokchisi bo'lgan 15 kishini birlashtirgan gashtak boy tarixga ega.

Ko'pchilikbizdانشuncha vaqt mobaynida gashtagimiz saqlanib kelayotganligi sirini so'raydi. Buni munosabatlarimizda beg'arazlik, samimiylik, halollik, kechirimli bo'lish kabi sifat-

lar ustunligi bilan izohlash mumkin. Biz o'zimizga nima istasak, boshqalarga ham shuni ravo ko'ramiz. Ba'zi bir gashtaklarda, do'stlar davrasida o'zaro munosabat o'zgacha: ayrimlar o'ziga qolganda ko'ngli ko'p narsa istaydi, alohida munosabat qilishlarini xohlaydi yoki oshnolari bilan qo'polroq hazillashib turadi. Ammo boshqa bir oshnasi ham o'sha narsani unga istasa, o'ziga o'shanday muomala qilishini talab qilsa, yoki haziliga yarasha javob qaytarsa xafa bo'ladi. Bunday sharoitda do'stlik rishtasi tezda uziladi.

"Birovni tushunmoq uchun o'zingni uning o'rniga qo'yib ko'rmog'ing, uning sevinch va dardini his etmog'ing lozim", - degan

ekan donishmandlardan biri. Hazrat Alisher Navoiy aytgan ekanlar:

Nekim o'z qoshingda erur noravo,

Ulusg'a oni ko'rma aslo ravo.

Shu sababli ham hech vaqt xudbin va baxil odamning do'sti ham, yaqin bir maslahatgo'yi ham bo'lmagan. Demak, hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaydigan, ezgulik bilan limmo-lim bo'lgan qablarning bir-biriga yaqinlashishi oson kechadi. Bunday kishilarning do'stligi umrboqiyli bilan ajralib turadi.

Biz o'z gashtagimizga, jumladan, farzandu nevaralarimiz uchun jonli misol sifatida qaraymiz. Qolaversa, hozirgi yoshlar uchun ham bu hayot sabog'i bo'ladi. Fransuz yozuvchisi Sent-Ekzyuperining ajoyib so'zlari bor: "haqiqiy do'stlikni targ'ib qilish qiyin, undan amalda o'rnak oladilar".

Darhaqiqat, asl do'st topishga farzandingizni da'vat etsangiz-u bunda faqat quruq so'zlardan foydalan-sangiz, bu so'zlarning, ular qanchalik chiroyli, jozibali va ma'noli bo'lmasin, ijobiy ta'siri kamroqdir. Shu sababli yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ana shunday gashtaklaru boshqa ajoyib udumlarimizni keng targ'b qilishimiz zarur.

Toshpo'lat RAHMATULLA

Amerikada o'zbek to'ylarida xizmat qilamiz:
Video tasvirga olish va montaj
Fotosuratga olish **Tel: 202-716-3683**
E-mail: photovideo@uzland.biz
Web: <http://www.uzland.biz>
UzLand Productions

Alaverdi
УЗБЕКСКАЯ КУХНЯ
Самые лучшие шашлыки в Филадельфии!
Лепешки, выпеченные в тандыре
ВУОБ
Прекрасное место для проведения юбилеев, свадеб, дней рождения, бармицев, батмицев и др.
СССР - СПИРТНОЙ С СОБОЙ РАЗРЕШАЕТСЯ
Владелец ресторана Амри, искусный повар, приглашает вас в свой ресторан
267-902-1285
1916 Welsh Road, Philadelphia, PA 19115
(Plaza Welsh & Old Bustleton)

Yaqinda amerikalik vatandoshlarimiz taniqli shoir va jamoat arbobi, Turkiston-Amerika assotsiatsiyasining asoschilaridan biri Ergash Sheramat (Buloqboshi) tavalludining 100 yilligini nishtonlashdi.

Amerikalik bu vatandoshimiz haqida gap ketganda, men har doim tilsunhos olim, professor Naim Karimov bilan bo'lgan suhbatni eslayman.


— Ko'pgina o'zbek ziyolilari singari, qayta qurish va oshkoralik davriga qadar men ham Buloqboshi to'g'risida biror tasavvurga ega emas edim, -degandi o'shanda Naim Karimov, -70-yillarning oxiri, 80-yillarning boshida Fanlar akademiyasi rahbarlaridan birining tashabbusi bilan o'zbek adabiyoti bo'yicha xorijda nashr etilgan ayrim kitoblarning ruscha tarjimalari bilan tanishish imkoniyati tug'ildi. Biz xorijiy o'zbekshunoslarning asarlaridagi "egriliklar"ga o'z munosabatimizni bildirishimiz lozim edi. Men E. Olluort, Ergash Sheramat, Boymirza Hayit va boshqa mualliflarning o'zbek ad-

VATAN VA ERK KUYCHISI

abiyotiga doir ishlari bilan tanishganimda, ularda adabiyotimizning biz ko'z yumib yurgan ayrim masalalari to'g'ri yoritilganini ko'rdim.

Keyinroq xorijda ijod qilayotgan ayrim o'zbek shoirlarining she'rlari bosila boshladi. Biz Buloqboshi degan shoir borligidan xabar topdik. Turkiyaga ilmiy safar bilan borgan do'stlarimiz Buloqboshining "Gullar makoni" degan she'rlar to'plami kitobini olibkeldilar. Bushe'rlarning badiiy saviyasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, bizda Buloqboshiga nisbatan katta qiziqish uyg'ondi. Buloqboshi xorijda o'zbek diyoriga borib, ota-onalari qabrini ziyorat qilishni orzu qilib yashayotgan vatandoshlarimizning chinakam shoiri edi".

Ergash Sheramat (Buloqboshi) 1910 yili Farg'ona viloyatining Xo'jaobod tumanidagi Buloqboshi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Ota-onasidan ancha erta yetim qolib, qarindoshlar qaramog'ida o'sdi. Oldiniga eski maktabda ilm



oladi, 1926 yili Toshkentga kelib ma'rifat bilim yurtiga o'qishga kiradi.

1931 yili Toshkent huquqshunoslik institutida bilim oldi. Uni bitirgach, Toshkentdagi Sovet qurilishi va huquq instituti aspiranturasiga o'qishga kirib, uni 1936 yili tugatdi. Aspiranturada o'qib yurgan davrida ishlay boshladi, zavod-fabrikalarda tashviqot-targ'ibot ishlari bilan shug'ullandi, Toshkentdagi Behbudiy nomli texnikumda va Lohutiy nomidagi Davlat teatr texnikumida ijtimoiy fanlardan dars berdi.

II Jahon urushidan

keyin Ergash Sheramat Germaniyada yashadi. "Ozodlik" radiosida xizmat qildi, "Milliy adabiyot", "Milliy Turkiston" majmualarini tuzdi va yangi asarlar yaratdi. 1958 yilning boshida AQShga ko'chib keldi va o'z "men"ini shu erda kashf qildi: she'rlar yozdi, suxandonlik qildi, siyosatshunoslik bilan shug'ullandi, jamoat ishida ishtirok etdi. Avval Chikagoda, keyinchalik Vashingtonda yashadi. "Amerika ovozi" eshittirishlarida qatnashdi, professor sifatida universitetlarda siyosatshunoslikdan lektsiyalar o'qidi. «Turkiston-Amerika» assotsiatsiyasi asoschilaridan biri sifatida amerikalik turkistonliklar orasida hurmat qozondi.

U o'zbek adabiyotini juda sevar edi, shoirlikka ixlosi baland bo'lganligi sababli "Buloqboshi" taxallusi bilan ko'pgina ta'sirli she'rlar yozadi. Uning she'rlari xalqimiz ozodligi yo'lida, mustamlakachilarga qarshi nafrat ruhida yozilgandi.

...1992 yili Ergash Sheramat yarim asrlik judolikdan so'ng O'zbekistonga

kirib keldi... Shoir vatanida farzandlari, nabiralari, yaqinlari, qarindosh-urug' va do'stlari bilan uchrashish baxtiga muyassar bo'ldi. Tashrif so'ngida shoir Buloqboshining Toshkentda, "Bilim" jamiyatining katta zalida O'zbekiston Adiblar ittifoqi a'zolari, o'zbek ziyolilari va jurnalistlari bilan uchrashuvi ko'pchilikning esida qoldi. Mazkur uchrashuvda mashhur adiblar Ozod Sharafutdinov, Erkin Vohidov, Ibrohim G'afurov, Naim Karimov, Ikrom Otamurod va boshqalar vatanparvar, yurtimizning fidoyi farzandi Ergash Sheramat to'g'risida dil so'zlarini bildirdilar. O'sha kuni Buloqboshi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy a'zosi etib saylandi.

Ergash Sheramatning etti farzandi va ko'plab nabirasi bor. Alifjon (asl ismi Alfred, uni otasi Alfred Nobel sharafiga qo'ygan) va Emin o'g'illari hamda Dilbar, Nabiha, Nuron, Shukron va Xolida ismli qizlari bor. Xotini Xadichabegim hozir farzandlari bilan Vashington shahrida yashamoqda.

Mavlon Shukurzoda, Washington shahri.

MEN -JARCHI

Sen - go'zal yurt sevgisila,
Oh-fig'on chekdim hamon,
O'zgalarga bosh egish-
Nomus-la o'lmakdan yomon.

Kelsin endi senga ham
Erkli davr surmak zamon,
Tunda aylanish bukun-
Serquyoshli kunlarim.

Gulbahor kelguncha tarqar,
Erk chaqirg'on unlarim!
Kuylamak erkni, hayotni-
Xizmatim, burchim erur.

Haq yo'lin so'zlash uchun
Zo'r kuchni o'z xaqim berur.
Har zamon o'smak yo'linda,
Birlashib ishlash zarur.

Na'ra tortib atayin men:
Yashasin milliy g'urur!
Tunda aylanmish bukun-
Serquyoshli kunlarim.

Gulbahor kelguncha tarqar
Erk chaqirg'on unlarim!

HAYOT UYG'ONAJAK

Kundan kunga isib borardi havo,
Umid-navbahordan bergancha darak.
Ildiz, kurtak otib chiqardi go'yo,
Ayoz- qish qismatin tan olmay yurak.

Hayot- o'lim tortishardi g'oyat zo'r,
Bu dunyoning aziz ishi zotan bo'l.
So'lgan hayot albat qayta uyg'onur,
Ulug' tangrim yaratgan qonuni shul.

VATAN TUG'I

Men Turkistonli, mag'rur bir turkman,
G'ururim cheksiz, yo'lim istiqlol.
Kurashda doim do'stlar-la sherikman,
Tug'imiz nishoni - yulduz-la hilol.

Tug'imiz bamisoli ko'k bilan taqlid,
Ko'kning nishoni bizga-da simvol.
Bu tug' ostinda minglab mujohid,
Kurashar, olmoq-chun miliy istiqlol.

Turkiston o'lkam, jonajon yurtim,
Noming jaranglar burro tillarda.
Senda quvonib, ochisin bahrim,
Mehrimg joylashgan toza dillarda.

SOG'INCH YO'LIDA

Nihoyat keldi so'zasiga ho'p choq,
Borlig'in qaynar, go'yo yosh buloq.

Kel, yonimga kel, yuzimga bir boq,
Bergin go'zalim, so'zimga quloq.

Bo'laylik ikkimiz ajralmas bir yor,
Yoq dema so'zimga go'zalim zinhor.
Qiz jamoling xo'p to'lishgan bahor,
Qilay senga men dardimni izhor.

Azob osonmas, tushungil, bilgil
Ammo azob-la so'nmas sog' ko'ngil.
Ko'nglimiz dilimiz go'yo Hulkardek,
Tun bag'rin yorsin, chaqnasin bir -yak.

O'zing bilsanki, azaldan beri,
Umidimiz ham yolimiz birdir.
Ikkimizni ham tortuvcha vatan-
Go'zal yurtimiz ulug' Turkiston.

BO'G'MANGIZ

Nima...
jinoyatmi,
o'z yurtini sevmak?
Vatan yo'linda ishlab,
xalqiga sevimlik?
Yashamoqdan na ma'no,
bo'lmas-kan unda sevgi?
Hayot - sevgi vodiysi...
Sevgisiz hayot-
bu bir kulgi...

Qo'ying...
Sevgi tarannum etsin,
Hayot qonun budir.

Har jon niyatga

etsin,

.....
Nega bo'g'asiz uni?

BU ZAMON

Ahtarmagan joy qolmadi,
Topmadim hech bir vafo.
Bu dunyoning har eridan
Topg'anim bo'ldi jafu.

Qayg'a borsam unda ko'rdim,
Ho'rlik yoki sohtalik.
Bilmadim bo'lurmikan
Dunyo yuzi bir kun yorug'.

Qorni och-la ishi yoqdir,
Kimning qorni bo'lsa to'q.
Garchi yillar dodlasang-da,
Sen bir tinglovchi yoq.

Tinchlanishni istasang,
Kuchga ega bo'lmoq kerak.
Shu zamon sendan ketar,
Jabru jafolar bedarak.

Kuchsizlik g'oyat yomondir,
Kuch demak nadur o'zi?
Kuch demak ulki, iymondir.
Unga yoq hech bir muvozi.

Ergash Sheramat Buloqboshi

DONISHMAND YIGIT

(O'zbek xalq ertagi)

Qadim zamonlarda bir podsho o'tgan ekan. U hukm chiqarishda gunohkor va gunohsizlarni chek tashlash yo'li bilan aniqlar ekan. Gunohkor deb hisoblangan odamni podsho o'z oldiga chaqirib, bir qutini ko'rsatar ekan. Uning ichida ikkita qog'oz bo'lib, biriga «O'lim», ikkinchisiga esa «Ozodlik» degan so'zlar yozilgan bo'lar ekan. Gunohkor «Ozodlik» so'zi yozilgan qog'ozni olsa, ozod bo'lar ekan, «O'lim» so'zi yozilgan qog'ozni olsa, o'limga hukm qilinar ekan.

Kunlardan bir kuni hasadgo'ylardan bir nechtasi to'planib, bir donishmand yigitni gunohkor qilib ko'rsatishibdi. Yigitning dushmanlari qutidagi ikkala qog'ozga ham «O'lim» degan so'zni yozib, solib qo'ygan ekanlar. Yaqinlari yigitni bu sir-asrordan xabardor qilishibdi.

Podsho odati bo'yicha gunohkorni chaqirib, qutidagi qog'ozlardan birini olishni buyuribdi. Yigit esa qog'ozlardan birini qo'lga olibdi-yu, yutib yuboribdi. Podsho esa qutida qolgan qog'oz orqali hukmni bilishga qiziqibdi. U qutini ochib qarasa, unda «O'lim» degan so'z yozilgan qog'oz qolibdi.

Podsho yigit yutgan qog'ozda «Ozodlik» degan hukm bo'lsa kerak, deb gunohsiz donishmandni ozod qilib yuboribdi. Donishmand yigit aql-zakovati tufayli o'limdan qutulib qolgan ekan.



© D.Tojraliyev

HADISLARDAN YOD OLAMIZ

ODAMLARNING YAXSHISI

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: «Odamlarning yaxshisi axloqda (xalqqa) yoqimli bo'lganlaridir. Eng yomoni esa chaqimchilik bilan yurib, do'stlar orasini buzuvchilar va begunoh odamlarni halokat hamda mashaqqatga muhtalo qilish uchun yo'l izlovchi kishilardir».

so'rabdi. Shunda: «Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga!» — debdilar Rasululloh (s.a.v.).

SALOM BERISH

Bir odam uchragan kishiga avval salom bersa, u kishi Rasululloh (s.a.v.) oldida eng yaxshi kishilardan hisoblanadi.


ONANI ROZI QILISH

Bir kishi Rasululloh (s.a.v.)dan: «Men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?» — deb so'rabdi. «Onangga», — debdilar Rasululloh (s.a.v.). U kishi shu savolni uch marotaba qaytaribdi. Rasululloh (s.a.v.) «Onangga», deyaveribdilar. To'rtinchi marotaba

TILINI TIYIB YURSIN

Payg'ambarimiz (s.a.v.) debdilar: «Kimki yaxshi inson bo'lishni o'ylasa, qo'shnisiga aslo ozor bermasin, mehmonni hurmatlasin, hayotida faqat yaxshi so'zlardan gapirsin. Bordiyu, yaxshi so'zlarga tili aylanmasa, u holda jimgina tilini tiyib yursin».

Rasmlardagi 10 ta farqni toping.



TEZ AYTISHLAR AYTAMIZ

1. Jamila jamlagan jami jiydadan Ma-vjudga jamlagan jami jiyda juda oz.
2. Oltoy olmasi Almati olmasidan oldin pishadimi, Almati olmasi Oltoy olmasidan oldin pishadimi?
3. Bedanalar bedanazorda sayrayverib, Berdiboyni bezor qildi.
4. Kitoblar kitobxonlarga kerak, kitobxonlarga kitoblar kerak.
5. Ortiqali oshpazning oshini yeganlar yuzdan osharmish.
6. Sabohat bu safar Samarqandga sa-farga chiqdi.
7. Salimning sadadagi sap-sariq savasi sahar sayraydi.
8. Bashar bilan Yashar yashil yarim sharda yashashar.
9. Osmorning osti yermi, yerning usti osmonmi?
10. Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp.

BESH DAN QO'RQQAN BUZOQVOY

Aqli buzoqvoyning kichkina bir yomon odati bo'lib, maktabda to'rtidan yuqori baho olmas ekan. Sinf ishini ham, uy vazifasini ham faqat to'rt bahoga bajarar ekan.

Buzoqvoydan Beshvoy juda ranjibdi.

- Nega sen doim meni xafa qilasan?

- Seni xafa qilganim yo'q! - debdi Buzoqvoy, - Sendan qo'rqaman!

- Nima uchun? - debdi ajablanib Beshvoy.

- Ikkixon oldimga kelib seni juda yomon baho ekaningni aytdi. Aytishicha, agar besh bahoga o'qisam manavi baquvvat oyoqchalarim beshta, chiroyli dumim ham beshta bo'lib qolar ekan.

- Voy-vo! O'sha g'alamisning gaplariga laqqa tushib o'tiribman degin. Ertaga uyoningga yana keladi-da, "to'rt baho olsang kallang to'rtta, uch olsang ko'zing uchta bo'lib qoladi. Yaxshisi ikkiga o'qiyver" desa ham ishonar ekansanda!

- Qo'ysangchi, nimalar deyapsan. To'rt kallali, uch ko'zli buzoqni ko'rganmisan?

- Unaqasini ko'rmadimu ammo umuman kallasi yo'q buzoq qarshimda turibdi! - deya, Beshvoy ketib qolibdi.

Uning gaplari Buzoqvoyga juda ta'sir qilibdi. Rost-da, agar o'qiyman desa, besh baho olish qo'lidan keladi.

- A-a tushundim, - debdi Buzoqvoy, - Ikkixon meni asta-sekin o'z tuzog'iga ilintirmoqchi ekan-da. Uning nog'orasiga o'ynaydigan ahmoq yo'q! Ertadan boshlab faqat besh baholarga o'qiyman!

Aytishlaricha, o'sha voqeadan so'ng Buzoqvoy eng a'lochi o'quvchilardan biri ekan.

Muazzam IBROHIMOVA

QIZIQARLI TOPISHMOQLAR

1. Qanday idishni sira to'ldirib bo'lmaydi?
2. Dengiz ostida qanday tosh bo'lmaydi?
3. Qanday soat bir sutkada ikki marta vaqtni to'g'ri ko'rsatadi?
4. Yomg'ir yog'ib turganda, qarg'a qanday daraxtga qo'nadi?
5. Tushimda yovvoyi hayvonlar meni taladi, ulardan qanday qilib qutulish mumkin?
6. Uchta traktorining Ahmad ismli akasi bor. Lekin Ahmad akaning ukalari yo'q. Bu qanday bo'ladi?
7. Qora mushuk qay vaqt uyga osongina kira oladi?
8. Suv qayerda ustundek turadi?
9. Qachon uchni ko'rib o'n besh deymiz?
10. Og'zida tishi yo'q odam tish og'rig'ini qachon biladi?

DONISHQISHLOQ LATIFALARI

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston Xalq
shoiri

(Davomi. Boshi avvalgi
sonda.)

MATMUSANING UYLANISHI

Safar qildi Matmusa
Olisdagi shaharga.
Ul shaharda yo'liqdi
Bir hur pari-paykarga.

Bo'ydoq edi Matmusa,
Uzoq turmay o'ylanib,
Qishlog'iga qaytdi u
Ul sanamga uylanib.

Hech gap emas baxt kelsa,
Aytar omad deb buni:
Uch oy o'tmay jononning
Yaqinlashdi oy-kuni.

Hamma hayron, hamma lol:
«Biz bir yilcha kutardik,
Matmusaning xotini
Chiqib qoldi udarnik».

Ne ekan deb, shoshilib
Zarbdorlikning bu siri,
Chopib keldi suhbatga
Donishgazet muxbiri.

«Biz ham chetda emasmiz,
Biz ham sherik mehnatga»,
Deb Matmusa tirjayib,
Qo'shiladi suratga.

Ertasiga bu xabar
Tarqab ketdi har yoqqa.
Sarlavha ham chiroylik:
«Ilg'or o'rmaq — qishloqqa».

Xat yog'ilar erlardan:
Tashabbusni qo'llaymiz!
Xotinlarni tajriba
Almashishga yo'llaymiz!

«Alvon-alvon shiorlar
Paydo bo'lar har joyda:
«Yangilikka — katta yo'!»
«To'qqiz oyni — uch oyda!»

Hay'atlarda kekkayib
Yayrab yurar Matmusa.
Biz undoq, biz bundoq deb
Sayrab yurar Matmusa.

Alqissa shu — ba'zida
Shunday bo'lib qoladi —
Birov qilib mehnatni,
Birov obro' oladi.

MATMUSA — RASSOM

Ko'chma muzey kelibdi
Bizning Donishqishloqqa.
Eshitdi-yu Matmusa,
Shoshib qoldi u yoqqa.

Ko'rdi borib mo'ylovdor
Qilich taqqan zotlarni.
U zotlarning ostida
Gijinglagan otlarni.

Ayniqsa, deng, ayollar,
Qarab-qarab oldi u.
Boqib ba'zi suratga,
Surat bo'lib qoldi u.

Biri biridan qiziq,
Bir-biridan zo'r, ammo
Abstrakt san'atga
Tushunmadi mutlaqo.

Dedi: shu suratga ham
Pul to'lashar, hoynahoy.
Demak, rassom ishi zo'r,
Demak, rassom juda boy.

Dedi: san'at kim uchun?
San'at hamma uchunmi?
Men ham endi bu ishda
Sinab ko'ray kuchimni.

Qat'iyatli — Matmusa,
U og'ziga so'z oldi.
Uyga kelib sandiqdan
Paytavalik bo'z oldi.

Tog'oraga rang qordi,
Bo'lsin uchun sozgina,
Qo'shdi tarnov suvidan,
Qo'y qiyidan ozgina.

Qo'lcho'pni siz so'ramang,
Topqirlikdan kamoli —
Guldek mo'yqalam bo'ldi
Echkisining soqoli.

Toldan yog'och kesdi-yu
Chorcho'pni ham bopladi.
So'ng u turfa matoga
Turfa rangni chapladi.

Qarabsizki, rasmtaxt,
Shartta qo'yib imzoni,
Olib keldi muzeyga,
Lol qilgani dunyoni.

Ko'rinarli joy topib,
Osdni uni devorga,
Allaqanday «izm» deb
Yozib qo'ygan qatorga.

Ertasiga keldilar
Mutaxassis xodimlar.
Ya'ni, o'sha «izm»ning
Piri bo'lgan olimlar.

Qaradilar, ko'rdilar.
Hech tish o'tmas anglarga.
Kim der: Ko'ring uslubni.
Kim der: Qarang ranglarga.

Bu G'arbdagi zo'r usul
Antirasm, der birov.
Primitivizmida butkul
Yangi oqim, der birov.

Xullas, ko'chma muzeydan
Bu surat ham joy oldi.
Matmusaga pul chiqib,
Bitta saman toy oldi.

Ey, yoronlar, borsangiz
London, Parij, Rumoga,
Muzeylarda bir qarang
O'sha tanish imzoga.

Jilva qilib o'zgacha,
Bo'y taratib turibdi.
Matmusa chizgan surat
Dunyo kezib yuribdi.
(Davomi kelgusi sonda.)

TOYOTA



High volume Toyota dealer, located in Brooklyn, is currently seeking sales people to head up their Pre-Owned department. Applicants should be energetic, passionate, self-disciplined, a self-starter and punctual. Bilingual is a plus. If you are an organized and an excellent communicator and want to join our winning team, please contact Mohammad Ali, 917-939-4464 or email your resume to mohammad.ali@bayridgetoyota.com

Applicants MUST NOT have prior experience as a pre-owned sales person.

We offer:

- * Sizable commissions
- * Bonus Programs
- * Sales Incentives and contests
- * Paid Vacations
- * 401K
- * Benefits
- * Job specific training and advancement opportunities
- * Support of a financially stable company .

Uzbek Night In New York

Ozoda Nursaidova

Sevara Nazarkhan

Shahzoda



Guests:
Danzaria Dance Group
Nilufar Nursaidova

Hosted By:
Tolibjon Isroilov



Millennium Theater Oceana



10-29 Brighton Beach Ave.

Brooklyn, NY 11235

Saturday April 30, 2011

Presented by:
Star Entertainment

Sponsored by:
Ali Baba Restaurant
Istanbul Restaurant
Asia Restaurant
Vatandosh News Paper
Erebuni TV

To purchase tickets, please
contact one of the following:

Oceana: 718-513-6616
Boris Production: 718-997-8237
Tamara: 718-526-0791
Millennium: 718-615-1500
Mila: 347-203-8043
Star Entertainment: 908-294-1498
Sunat: 646-251-7281
Vostok: 718-896-6000

Said ANVAR

TABIB

(hajviya)

«Nosir buva o'rikdan yiqilib tushibdi», degan gap juda tez tarqaldi. Qo'ni-qo'shnilar, o'g'il-qizlari, boringki, jamiki qarindosh-urug'lari to'plandi.

Nosir buva yetmishga kirgandi. Uni ustiga o'rikdan ham yiqilib tushdi. Bu yog'i ma'lum-da.

Erkaklar bir-birlariga ma'noli bosh chayqashni, xotinlar motamda kiyiladigan ust-boshlarini hozirlashni boshlashdi. Busiz mumkin emas-da. Axir ota yetmishga kirgan. O'rikdan ham yiqildi. So'rida inqillashni ham ja o'rniga qo'ymoqda. Endi bu yog'i...

Faqat kampiri — Chaman xola beparvo. Qarib miyasi suyulib qolgan-da, shu pallada sigirining kanasini terish bilan ovora! Eshikdan o'rtanchi o'g'li — Akramjon kirgandagina u sal sergaklanib, jilmayganicha boshini sarak-sarak qilib qo'ydi.

— Ota, ota, tuzukmisiz? — Akaramjon otasining tepasiga borib so'radi.

— Ihi! Ihi! Ihi! A-a-akram, s-s-senmisan? — bemor ko'zini xiyol ochdi.

— Menman, ota, menman!

— Rozi bo'lasan endi, — deb ota vidolashgan-day ko'zini yumdi.

— E, qayoqdagi gaplar bilan odamni qo'rqitmang! — Akramjon qo'l siltadi. — O'rikdan yiqilganlarning hammasi o'laversa — bu dunyoda odam qolmasdi!

— Sen oldin men yiqilgan joyni ko'rgin! — otaning ovozi zardali, shu bilan birga dadilroq yangradi. Hatto qo'li bilan o'rikka imladi. — Hov, ayridan yiqildim.

— E, u ayri nima bo'libdi! — o'g'il o'rik tomon yurib, shartta ayriga chiqdi. — Shu yerdan yiqildingizmi?

— Ha, ha.

— Bu yerdan yiqilgan odam o'lmaydi.

— O'ladi!

— O'ladimi? Bo'lmasa menam o'zimni shu yerdan tashlayman, o'laman, birgalashib ketamiz! Mana, qarab turing! — deb Akramjon o'zini tashlamoqchi bo'ldi.

— Hay-hay-hay! — Nosir buvaga qaydan g'ayrat topdi, o'mganini ko'tarib, qo'l siltay ketdi. — O'lmaydikan, o'lmaydikan! Tashlama! Mana, men o'lmadim-ku!


— O'lmasa ham et-beti lat yeydi, o'n-o'n besh kun oh-voh qilib, ko'rgani kelganlarning tekin ovqatini yeb maza qilib yotadi! Menam bekorchiman, ota, hasratlashib yotamiz. Qarab turing!

— Yo'-yo'-yo'q! Lat ham yemas ekan, mana! — bemor o'rnidan dast turib ketdi. — Qara, hammayog'im sog'u salomat. Tush!

Akramjon o'rikdan tushdi. Qo'ni-qo'shnilar, o'g'il-qizlar, qarindoshlar qo'l siltashib jo'nashdi. Chaman xolaning qo'li esa, Akramjonning yelkasi-ga kelib tushdi.

— Akram, yaxshiyam sen borsan, bolam. Bilardim, otang o'lmasdi. Ammo oh-voh qilib yotib olardim, uch oy kasal boqardim.

Dard-... nolish	Abdulla ... (yozuvchi)	Sabr-...							
		Xamirli taom	Turkiya xalqi	Uchish mosta-masi	Barchasi				
Qadimgi transport ...- farog'at	Qazili taom			Adad, nusxa					
		Koinot	Dada, padar						
Bayram shirinligi	... qal'asi mahbusi" (kino)	Xushbo'y pardozi suyuqligi		"Qon ...i oshib ketdi"	Monelik	X			
		Gretsiya poytaxti	Go'l, laqma	Jajji kitobcha					
Asfalt saqichi	Ikki yo'l oraliqi	Sog'-...	Donish-mand				Arablardan boshqa xalqlar	... bo'lmoq, jo'namoq	Dvigatel
				...lar bo'limi	Undirilgan moddiy to'lov				
Italiya fj	"... yorti - bir butun"			Qonunga zid	Go'zal chehra				
			N	Vetnamga qo'shni davlat	Dog'iston xalqi	Sort, xil		Suv (tojikcha-da)	O'zaro kelishuv, ahdnoma
Katta qatnov yo'li	"... va Jerri" (mult.)	"...gani bola yaxshi"	A	L	Kir yuvish kukuni			Radioaktiv metall	
		Ko'mak	O'lganlar ruhi					Rashod ... Guntekin (turk adibi)	
"Biroq"ning sinonimi			Quro-yarog'	Zaryadlangan zarra				... Hovuz (Buxorodagi obida)	
		...-mana			Mabodo	Muhammad ... (shoir)			
...sekin	Ta'kid yuklamasi		"... devni minib" (asar)	Og'a	Pari, malak				
			Shri-... (davlat)					Erta tong	G'amlab qo'yilgan
Somon rangli ot	Xabar				Kerak, zarur	...U-nozir			Italiyadagi shahar
		Doirasimon sirg'a						Minimagan, yovvoyi	O'rtacha harorat
			Amerika to'tisi	Ibrohim ... (adib)					
"Farhod ... Shirin" (doston)	Qat'iy qaror, jazm				O'pka kasalligi				Joylashmoq (poetik)
				Chet el					
... darmon	Farmon					Hech ... yo'q			




SKANVORD

MUALLIF HAQIDA: Said Anvar «Oraliqdagi odamlar», «Otamning oti nimaydi?», «Muhiddin Darvesh», «Abdulla qiziq nima deydi?» kitoblari bilan kulgi muxlislariga yaxshi tanish. Yozuvchining «Osmondan tushgan odamlar» komediyasi «Yilning eng yaxshi dramatik asari» nominatsiyasi bo'yicha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining, «Uch kun xo'roz bo'lganim» kitobi esa, Respublika Matbuot qo'mitasining mukofotlari sazovor bo'lgan.

OYIGA 10-15 POUNDGA OZISH!!!

Murojaat uchun: Elena
Phone: (917) 306-8699



3144 Atlantic Ave Brooklyn NY 11208

Tel.: 7182352652

www.homefurnitureny.com

Mobilia Furniture and Carpet with its convenient location in Brooklyn, New York is a furniture shoppers dream with over 150,000 square feet of furniture to choose from. It suits the needs of even the pickiest shopper. We carry almost every furniture brand name and other unique exclusive imports such Form Italia Gucci, Benetti's Italia and Arredo Classic. Our wide range of selection includes antique, traditional to modern and even custom made furniture. We are open 7 days a week and we welcome you to visit our showroom. Our talented and educated staff and designers are ready to answer any of your questions and serve you with all your furniture needs. We take pride in serving our customers and giving them the best value and service. We are open 7 days a week and we look forward to meeting and assisting you to create a beautiful home online or in person at our showroom.



**Present this coupon
and get extra**

**10%
discount!!!**